

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI**

**“IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT” TA‘LIM YO‘NALISHI**

**“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA  
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARIGA USLUBIY  
RAHBARLIKNING ZAMONAVIY TALABLARI”**

**MAVZUSIDAGI**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada  
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san‘at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” kafedrasining \_\_\_\_ -  
sonli yig‘ilish bayonnomasi

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_

X.Shodiyev

**Bajardi:** “Ijtimoiy madaniy faoliyat”  
ta‘lim yo‘nalishi IV-kurs bitiruvchisi

Zayniyev Sunnatilla Xasanovich

**Ilmiy raxbar:** p.f.n. dotsent  
D.Muxammadiyev

**Toshkent-2014 yil**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	1
<b>I BOB Madaniyat va san'at muassasalariga uslubiy rahbarlikning ilmiy-nazariy asoslari</b> .....	4
1.1. Uslubiy rahbarlik tushunchasi va uning mohiyati.....	4
1.2. Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishda uslubiy rahbarlikning mazmuni.....	11
<b>II Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishning ilmiy-uslubiy BOB asoslari</b> .....	29
2.1. Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida ssenariyning roli.....	29
2.2. Uslubiy rahbarlikning demokratik jamiyatda tutgan o'rni.....	38
<b>Xulosa</b> .....	56
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	58

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida hayotning boshqa jabhalari kabi madaniyat sohasida ham jiddiy o'zgarishlar — islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Ma'lumki, O'zbekistonda islohotlar mamlakat Prezidenti Islom Karimov tomonidan taklif etilgan beshta tamoyil bo'yicha amalga oshirilmoqda. Madaniyat sohasida ham bosh islohotchi—bu davlat. O'zbekiston hukumati madaniyat va ma'naviyat sohasidagi islohotlarni ustuvor yo'nalish deb hisoblab, bu boradagi ishlarga jiddiy e'tibor bermoqda.

O'zbekiston xalqining maqsadi — kuchli davlat asosida kuchli jamiyat qurish. Bundan kelib chiqib, mamlakatimiz madaniyat sohasidagi islohotlarning ham asosiy yo'nalishi madaniyat va san'at muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, ularni nodavlat va jamiyat tashkilotlariga aylantirish, jamiyat va inson manfaati asosida xizmat qiluvchi yangi jamiyatlar, uyushmalar, markazlar va jamg'armalar tuzishdan iborat.

**O'zbekiston madaniyat tashkilotlari va muassasalari tizimida ikki yo'nalish paydo bo'lmoqda:**

*Davlat tashkilot va muassasalari*

*Nodavlat va jamoat tashkilotlari*

Davlat tasarrufidagi tashkilotlar:

a) Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi tashkilotlar;

b) davlat aksionerlik jamiyatlari, kompaniyalar, birlashmalar: «O'zbekkino» milliy agentligi,

«O'zteleradio» kompaniyasi,

O'zbekiston Badiiy akademiyasi,

«O'zbeknavo» estrada birlashmasi,

«O'zbekteatr» IIB,

«O'zbekraqs»,

«Musavvir» ilmiy ijodiy ishlab chiqarish birlashmalari,

«O‘zbekmuzey» birlashmasi,

«O‘zbekturizm» aksionerlik kompaniyasi va boshqalar.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari:

a) jamg‘armalar;

b) ijodiy tashkilotlar, jamiyatlar va uyushmalar;

v) madaniy-ma’rifiy markazlar.

Yuqorida biz qayd etib o‘tgan madaniyat va san’at muassasalarini boshqarish va uslubiy rahbarlik qilish hozirgacha eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ushbu tadqiqot mavzusi juda dolzarb hisoblanadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** Mustaqillik yillarida prezidentimiz I.A.Karimovning madaniyat va san’at sohasiga doir chiqarayotgan qaror va farmlonlarida madaniyat va san’at sohasiga alohida e’tibor qaratilib davlatimizning ustuvor masalalaridan biri sifatida o‘rganildi. Tabiiyki ushbu ustuvor vazifani amalga oshirishda madaniyat va san’at sohasiga uslubiy rahbarlik qilish uni milliy g‘oya va ma’naviyatimizga uyg‘un tarzda olib borish katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan madaniy-ma’rifiy sohadagi o‘zgarishlar va islohotlarni tahlil qilish ishlarini M.Bekmurodov, A.Mavrulov, U.Qoraboyevlarning ilmiy va ijodiy faoliyatlarida ko‘rishimiz mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologiyasini** Madaniyat va san’at sohasida faoliyat olib borayotgan olimlarimizning uslubiy rahbarlik, madaniy tadbirlarni tashkil etish metodikasiga doir qarashlari aks etgan asarlari, O‘zbekiston Respublikasining bu boradagi milliy qonunchiligi, qonunosti hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining madaniyat va san’atga doir qarorlari, O‘zbekiston respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyruqlari, Prezidentimiz I.A.Karimovning ma’naviyat va milliy g‘oya masalalari yoritilgan asarlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning maqsad:** O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalariga uslubiy rahbarlikni o‘rganish va tahlil qilish.

Aholini madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishini yanada yuksaltirish.

Ko'ngil ochish va dam olishni mazmunli o'tkazish bo'yicha ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishga uslubiy yordam berish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

-O'zbekistonning madaniyat va san'at muassasalari faoliyati mazmunini odamlar ijtimoiy hayotidan mustahkam o'rin olishiga ko'maklashish;

-Madaniyat va san'at muassasalarida tashkil etilayotgan madaniy tadbirlar uslubiyotini davr talabi asosida olib borishga uslubiy rahbarlik qilish.

**Tadqiqotning obekti.**O'zbekistonda madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xosligini o'rganish va ilmiy-nazariy tahlil etish.

**Tadqiqotning predmeti.** Uslubiy rahbarlik tushunchasi va uning mohiyati, madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishda uslubiy rahbarlikning mazmuni, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida ssenariyning roli, uslubiy rahbarlikning demokratik jamiyatdagi o'rni tadqiqotning predmeti etib belgilangan.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I. BOB Madaniyat va san'at muassasalariga uslubiy rahbarlikning ilmiy-nazariy asoslari**

### 1.1. Uslubiy rahbarlik tushunchasi va uning mohiyati.

Hozirgi zamon rahbarining muhim jihatlaridan biri favqulodda vaziyatlarda hamda ishda kamchiliklarga yo'l qo'yilgan hollarda barcha mas'uliyatni zimmasiga ola bilish xususiyatidir. Shu narsa e'tiborga sazovorki, mamlakatning umumiy taraqqiyot darajasi qancha yuqori bo'lsa, faoliyat uchun mas'ullik hissi shuncha yuqori bo'ladi va rahbarning ish javobgarlik darajasi ham, intizomi ham shuncha yuksak bo'ladi. Boshqaruvning kichik masofalariga amal qiluvchi tashkilotda esa, xodimlarning ish tartibotlari, bajarayotgan ishlari va mavqelari o'rtasidagi har hillik aniq belgilangan bo'lib, rahbarning ta'sir va tazyiqidan ko'ra, huquqlar, qoidalar, ustuvorlik qiladi, yuqori lavozimdagi rahbarlar quyi lavozimdagi xodimlar uchun iloxiylashtirilmaydi, boshqaruvchi va bo'ysunuvchilar o'rtasida o'ziga xos uyg'unlik tarkib topgan bo'ladi, oddiy xodimlar, o'rtasida esa, o'zaro hamkorlik aloqalari amal qiladi.

Rahbar mas'uliyati va ma'naviyati ko'p qirrali jarayondir. Rahbar odamdarga xizmat qilishi, tashkilotning manfaati uchun xizmat qilishi kerak, deganimizda, birinchi navbatda rahbar xalqning ahvolini nechog'lik yaxshi bilishi, xalqning farovonligini ko'tarish uchun choralar izlashini ko'z oldimizga keltiramiz. Bu masalaning barchasiga aniqlik kiritish, ularni hozirgi zamon ko'zi bilan baholash, bu boradagi eng dolzarb muammolarni aniklash zarur. Xar bir rahbar o'zi boshchilik qilayotgan jamoa xodimlarining turmushini yaxshi o'rganishi rivojlanish va unga to'siq bo'layotgan tomonlarni yaxshi tasavvur qilishi, taraqqiyotiga yo'l ochuvchi vositalarni ishga sola bilishi, bu ishda qat'iyat, sabr-bardosh ,tadbirkorlik ko'rsata olishi darkor. Ikkinchi o'rinda majlislar turadi. Bu majlislarlarda oddiy fuqoro ishtirok etmaydi, katta rahbar o'zidan pastdagilarni to'plab topshiriq berishadi va nihoyat axborotlar pastdan yukoriga karab to'planib borib, katta rahbar bazan bu axborotlarni sinchiklab o'rganib chiqmasdan,

balandparvoz gaplar bilan to'ldirib, yana yuqoriroqqa jo'natadi. Bunday rahbarlik usuli boshqaruv tizimi xalqning haqiqiy ahvolini real aks ettirmaydi. Vaqt sarflangan, pul sarflangan, lekin natija yo'q. Xalqimizning milliy turmush tarziga, xususan, uning manaviy asoslariga chuqur razm solsak, ayniqsa qishloqlarda bo'lsak, xonadonlarga kirsak, oddiy fuqorolar bilan suhbatlashsak, ularning kiyinishi, yurish-turishi, uy jihozlari, fikr mulohazalarini tinglasak xullas, bir so'z bilan aytganda xalq hayotining ichki qatlamlarini o'rgansak, quyidagi xulosalarga kelamiz: Bu masalalarning ichki va tashqi sabablari bor, albatta. Tashqi, obyektiv sabablar sifatida aytish joizki, qishloq infratuzilmalarini obod qilish, ya'ni yo'llar, ko'priklar, ariqlar binolar, inshootlarni ham samara beradigan, ham kayfiyatga ijobiy tasir qiladigan darajada obodonlashtirish, aholini toza ichimlik suvi, gaz bilan yanada yaxshiroq taminlash, qishloqlarda madaniyat markazlarini barpo qilish muhim ahamiyatga egadir. Bu borada qabul qilingan farmon va qarorlar to'la bajarilishiga jiddi e'tibor qaratilishi zarur.

Muhitning inson ruhiyatiga, kayfiyatiga, dunyoqarashiga, umuman, yashash tarziga tasiri juda katta ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Menejment tizimining eng muhim talablaridan biri ish va kayfiyat, ish va hayot tarzi birligidir. Ishning yaxshi ketishi, rivojlanish, mo'l-ko'llik farovonlikka erishish, yuksak texnologiya asosida yuqori va sifatli maxsulotlar ishlab chiqarish, odamlar ma'naviyatining yuksalishi birinchi navbatda, ularning salomatligini taminlashga, kayfiyatlarini ko'tarishga do'stona munosabatlar qaror topishiga, ularning madaniy saviyalari bilim va tafakkuri, tajribalari boyib borishiga bog'liqdir.

Menejment tizimining yuqoridagi talablari eng yuksak darajada qaror topgan mamlakat — Yaponiyadir.

Yaponiya rahbarlik tizimi boshqaruv tizimi zig yuqori darajada insoniylashgan mamlakatdir. Har bir rahbar o'zini jamoasining bir qismi deb xisoblaydi, odamlarning g'am-tashvishlari bilan yashaydi. Odamlardagi ma'naviy yetuklik darajasining qanday holatda ekanligi pastligini bir

karashda bilib bo'lmaydi. Rahbarning madaniy saviyasi, ma'naviy holati qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ijtimoiy ijodkorlikka moyil bo'ladi. Ijtimoiy ijodkor shaxs esa boshqaruvda ko'proq korporativ boshqaruv uslublarini joriy etadi. Boshqalarga g'amxo'r bo'ladi, rahbar xodimlarning ichki ruxiy xolati, orzu intilishlari, kayfiyatlari, yashash va turmush tarzi imkoniyatlaridan xabardor bo'lib turishi, muammo va ichki ziddiyatlarni oqilona yechish yo'llarini tavsiya eta olish salohiyati bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda rahbar o'z-o'zini boshqarishi, o'z faoliyatiga tanqidiy ko'z bilan qarashi, o'z-o'zini anglashi, o'ziga va boshqalarga talabchan bo'lish tamoyillariga ham jiddiy muhim ahamiyatga egadir.

Biz yuqorida rahbarlikning ilmiy-nazariy jihatlariga to'xtalib o'tdik. Shu o'rinda savol tug'iladi. Madaniyat va san'at sohasi qanday boshqariladi yoki madaniyat va san'at sohasiga rahbarlikning o'ziga xosligi nimada? Bizning tadqiqot ishimiz uslubiy rahbarlik bo'lgani sababli uslub so'ziga izoh berib o'tamiz. Uslub so'ziga falasafa qomusiy lug'atida shunday izoh berilgan.

Maqsadga yetishish jarayonida bir necha, goho o'nlab-yuzlab to'siqlarni yengishga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni yengish uchun tegishli usullar tizimi qo'llaniladi.

**Maqsadga yetishda qo'llaniladigan usullar tizimini uslub (yo'l), deyiladi.** Maqsadga yetishdagi qo'llaniladigan usullar tizimi turli faoliyat sohalarida turlicha atamalar bilan nomlanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi maqsadga yetishdagi usullar tizimi – "uslub" yoki "metodika" sanoat ishlab chiqarishida-"texnologiya", qishloq ho'jalik ishlab chiqarishida– "agrotexnologiya", o'simlikshunoslikda "biotexnologiya", tasavvufida– "tariqat", yashash yo'lini ifoda etganda "shariat", musiqada – "yo'l" degan tushunchalar bilan ifodalanadi.

Maqsadga yetishda uchraydigan to'siqlarni bartaraf qilish usullarini ma'lum bir uslubda qo'llanish jarayonida, kishining xar bir harakati maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. YA'ni maqsad ko'rsatkichlari unga qay yo'nalishda harakat qilishni belgilab beradi. Shu bilan birgalikda, harakat jarayonida bizning ixtiyorimizdan tashqari ishlaydigan qonuniyatlarga ham amal qilib harakat ijro qilinishi shart. Aks

holda ko‘zlangan maqsadga yetib bo‘lmaydi. Maqsadga yetish jarayonida maqsad ko‘rsatkichlari bilan shu harakatning tamoyillari, deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-sonli qaroriga muvofiq yangi I, II, III tipda madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etildi.

I tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo‘lgan va kamida 400 o‘rindiqli tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tumanning ma‘muriy markazlarida;

II tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo‘lgan va o‘rindiqlar soni 250 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida;

III tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 7 mingdan ortiq bo‘lgan va o‘rindiqlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida tashkil etilishi mumkin.

Shaharlarda va tuman markazlarida xizmat ko‘rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib I, II va III tipdagi markazlar, qishloq joylarda esa – faqat II va III tipdagi markazlar tashkil etilishi mumkin.

### **Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari**

- Markaz milliy an‘anaviy madaniyatni saqlab qolish va o‘rganishda jamoatchilik ehtiyojlarini o‘rganish va qondirish, badiiy ijodni, boshqa havaskorlik ijodiy tashabbuslarni va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo‘llab-quvvatlash, uning dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladi.

- Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi obyektlarini saqlab qolish va ko‘paytirish, zamonaviy studiyalar va to‘garaklarni, shuningdek badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo‘li bilan badiiy ijod va amaliy san‘atni rivojlantirish (Markazning to‘garaklari, studiyalari va jamoalari yo‘nalishlari va nomlarining tavsiya etiladigan ro‘yxati ilova qilinadi);

- aholining barcha qatlamlari tomonidan talab qilingan zamonaviy madaniy-ma'rifiy xizmatlarni keng yoyish, Internet-studiyalar, elektron resurslar, shu jumladan Internet vositasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish kurslari tashkil etiladigan ko'p funksiyali zallarda qiziqarli va maroqli tomoshalar, to'ylar va boshqa tantanali tadbirlar, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o'yinlar bo'yicha musobaqalar o'tkazilishini tashkil etish;

- "O'zbekiston iftixori" va "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" shiorlari ostida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni, milliy adabiyot va san'atning taniqli arboblari, sportchilar bilan aholining, shu jumladan yoshlarning estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uchrashuvlarni tayyorlash va o'tkazish, ushbu faoliyatga professional ijodiy guruhlarini va san'at arboblarni jalb etish;

- foto va amaliy san'atning doimiy va vaqtinchalik ko'rgazmalarini, tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining mini-festivallarini o'tkazish orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash, shuningdek ularni ma'naviy qo'llab-quvvatlash va ijodkor yoshlarning yutuqlarini targ'ib qilish;

- havaskorlik badiiy va amaliy ijod jamoalari, studiyalari va to'garaklari, xalq teatrlari, madaniy-bilish, tarix-o'lkashunoslik, ilmiy-texnik, tabiat-ekologik, madaniy-maishiy, kolleksiya-to'plash qiziqishlari va boshqa qiziqishlar bo'yicha filarmoniyalar, havaskorlik birlashmalari va klublar tashkil etish hamda ular ishini tashkil etish;

- mahalliy urf-odatlar va an'analarga muvofiq ommaviy teatrlashtirilgan bayramlar va tomoshalar, xalq sayillari o'tkazish;

- Markazning imkoniyatlari doirasida, aholining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, unga ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan xilma-xil pulli xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan bolalarni to'garaklarga jalb etish;

- ijtimoiy-ijodiy buyurtmalar, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan boshqa shartnomalar bo'yicha turli madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda maslahat, metodik va tashkiliy-ijodiy yordam ko'rsatish, shuningdek qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish (musiqali asboblarni, rekvizitni ijaraga berish, repertuar-metodik materiallarni sotish va shu kabilar);

- madaniy-ijodiy, madaniy-bilish, dam olishning boshqa turlarini hamda Markazning asosiy vazifalariga muvofiq bo'lgan boshqa faoliyatni amalga oshirish.

### **Markazning asosiy funksiyalari hisoblanadi:**

- O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi obyektlarini saqlab qolish, havaskorlik san'atini rivojlantirish bo'yicha davlatning madaniyat sohasidagi siyosati natijalarini aks ettiruvchi badiiy loyihalar va dasturlarni ijodiy mujassamlashtirish;

- xalq ijodiyoti janrlari, nomoddiy madaniy meros bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va havaskorlik san'atini rivojlantirish;

- Markaz mutaxassislarining malakasini oshirish, doimiy ishlovchi ko'rgazmalar, studiyalar, mahorat darslari, seminarlar tizimi orqali ko'nikmalarni hosil qilish.

- Markaz qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

- Markaz tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ushbu faoliyatdan olingan daromadlarni va ushbu daromadlar hisobiga sotib olingan mol-mulkni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etadi.

I tipdagi Markazlar:

II va III tipdagi markazlarning muassasalariga tashkiliy-metodik rahbarlik qiluvchi metodik markaz, madaniyat va san'atning tayanch muassasasi hisoblanadilar;

o'zining xizmat ko'rsatish tegrasiga kiradigan tuman markazi va aholi punktlarida yashovchilar o'rtasida turli ommaviy va madaniy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

aholining, ayniqsa yoshlarning ehtiyojidan kelib chiqib to'garaklar, studiyalar, badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini hamda markazlar tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlarni tashkil etish yuzasidan II va III tipdagi markazlarni metodik qo'llanmalar, shuningdek yangi repertuar to'plamlari bilan ta'minlaydilar;

O'zbekiston Respublikasining milliy va kasb bayramlariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda II va III tipdagi markazlar kengroq jalb etilishini ta'minlaydilar;

II va III tipdagi markazlar bilan birgalikda nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lgan har yilgi tadbirlar rejasini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

## **1.2. Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishda uslubiy rahbarlikning mazmuni**

Madaniy-ma'rifiy faoliyat mamlakatimizda aholi turli tabaqalari vakillarini badiiy, estetik, ahloqiy, ijtimoiy-siyosiy, yo'nalishlarda tarbiyalash, odamlarning ma'naviy, ijodiy faolligini tashkil etish, barkamol insonni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasining o'rni va roli kattadir. Madaniy-ma'rifiy faoliyat madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va san'at saroylari, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, mahalla guzarlari, axborot resurs markazlari, kutubxonalar, rassomlik galeriyalari orqali amalga oshiriladi. Sobiq sho'rolar davrida bu faoliyat madaniy-oqartuv ishi nomi bilan yuritilar, ularning asosiy ish mazmuni totalitar tuzum mafkurasini badiiy vositalar orqali aholining eng quyi qatlamlariga qadar yetib borish uchun xizmat qilar edi. O'sha davrdagi klub muassasalariga odamlar deyarli kirishmas, badiiy havaskorlik ijodiyoti nomiga tashkil etilar edi. Qishloq joylaridagi kutubxonalarining eshiklariga qulf solib qo'yilgan bo'lib, ulardagi kitoblar soni 3-5 mingdan oshmas ular ham asosan siyosiy adabiyotlardan iborat edi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng madaniy-ma'rifiy ishlar tubdan isloh etilib, ijtimoiy-madaniy faoliyat deb nomlandi. Odamlar kirmaydigan xarob holdagi kutubxonalar o'rniga axborot-resurs markazlari barpo etildi. Klub muassasalari esa "Madaniyat va aholi dam olish markaz"lariga aylantirildi. "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" tom ma'noda yangi inson ma'naviyatini shakllantirish sohasiga aylandi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat rivojida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-sonli qarori muhim rol o'ynamoqda.

Davlatimiz rahbari I. A.Karimovning ma'naviyat va ma'rifat sohasiga bo'lgan doimiy e'tibori beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, 2006 yil 3 apreldagi "Aholi o'rtasida olib borilayotgan ma'naviy - ma'rifiy va targ'ibot - tashviqot ishlarining ta'sirchanligi va samarasini oshirishga karatilgan ko'shimcha chora - tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ - 3 17 sonli Qarorida xalkimizni dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy, mafkuraviy kurashlardan muntazam habardor qilish, jahonda va yon atrofimizda sodir bo'layotgan vokea - xodisalarga nisbatan fukorolarimizda ongli munosabatni shakllantirish, ularda milliy manfaatlarimizni chukur anglash va ximoya qilish, Vatanimizning bugungi va ertasi uchun daxldorlik va mas'ullik xissini yanada kuchaytirishga qaratilgan ma'naviy - ma'rifiy ishlarni amalga oshirish yo'llari aniq ko'rsatilgan.

Ma'lumki, sobiq totalitar tuzum davrida madaniyat asosan kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish, insonni siyosiy tutqunlikda asrab turish uchun kerak edi. Buning uchun esa siyosiylashgan madaniyatni shakllantirish zarur edi.

Buning uchun barcha imkoniyatlar, mablag'lar safarbar etilar edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng demokratik fuqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat ozod va erkin insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- Xalqimizning tarixiy xotirasi tiklandi;
- sovet davrida ta'qiqlangan asori-atiqalar, madaniy meros, qadriyatlar milliy-tarixiy ongni shakllantirishga yo'naltirildi;
- Xalqimiz o'z milliy tiliga egalik huquqini qo'lga kiritdi;
- milliy ong, milliy ruh, diniy e'tiqodlar, xalq odatlari tiklandi;
- xalq ijodi, milliy o'yinlar, tarixiy me'morchilik san'ati, ko'pgina an'anaviy ijod turlariga yana hayot baxsh etildi.
- xalq odatlari, marosimlari va bayramlar milliy bayramlarimiz tiklandi; (Navro'z, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti) yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, O'qituvchilar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilar) joriy etilib, xalq ma'naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag'ishlamoqda;
- islom dini halqimiz ma'naviyatining uzviy qismiga aylandi;

– diniy qadriyatlarning tiklandi, machit va madrasalar ta'mirlandi, diniy adabiyotlar nashr etilmoqda, vijdon erkinligi to'la ta'minlanmoqda;

Xalq ijodi bo'yicha respublika va xalqaro anjumanlarning o'tkazilishi, ajdodlarimiz merosi, milliy-axloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lmoqda. Xususan, xalq hunarmandchiligi va tasviriy san'at ko'rigi, oilaviy ansambllar va lapar ijrochilari tanlovlari, «Alla» ijrochilarining ko'rigi, folklor-etnografik ansambllari festivali, dorbozlar, an'anaviy sirk san'ati, qo'g'irchoq teatri jamoalarining ko'rik-tomoshalari, qadimiy qo'shiqlar, urf-odatlar va marosimlar namoyishlari kabi tadbirlar shular jumlasidandir.

– Respublikamizda madaniyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. Jumladan, Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» kengashi, «Ta'lim markazi», «O'zbekkino», «O'zbeknavo», «O'zbekraqs», «O'zbekmuzey», «O'zbekteatr», Badiiy akademiya, Milliy madaniy markazlar kabi ko'plab madaniy-ma'rifiy tashkilotlarning tuzilishi respublika ma'naviyati asosiy sohalarining ravnaq topishiga zamin bo'ldi.

– madaniyat va san'at sohasida nodavlat, notijorat tashkilotlar tarkib topdi;

– ulug' ajdodlarimiz tavalludlarining yubileylarini nishonlash yo'lga qo'yildi;

– O'zbekistonda o'tkaziladigan madaniy tadbirlar jahon jamoatchiligi e'tiboriga sozovor bo'lib, halqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi faoliyat yo'lga qo'yildi;

Masalan, YUNESKO orqali xalqaro miqyosda:

Bahovuddin Naqshbandiyni 675 yilligi (1993);

Zahiriddin Boburning 510 yilligi, 520 yilligi (1993-2003);

Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi, (Samarqand, Parij, 1994);

Mahmud Zamahshariyning 920 yilligi (1995);

Najmiddin Kubroning 850 yilligi (1995);

Amir Temurning 660 yilligi (Samarqand, Parij, 1996);

Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi (1998);

Ahmad Farg'oniyning 1200 yilligi (1998);

Burhonidsin Marg'iloniyning 910 yilligi (2000);

Kamoliddin Behzodning 545 yilligi (2000);

Alisher Navoiyning 560 yilligi (2001);

Abduholiq G'ijduvoniyni 900 yilligi (2003) kabi bugok ajdodlarimizning yubileylari, shuningdek:

«Alpomish» eposining 1000 yilligi (Termiz, 1999);

«Avesto» nint 2700 yilligi (Urganch, 2001);

Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi (Xorazm, 2005) kabi sanalarga bag'ishlantgan tadbirlar o'tkazildi.

O'zbekistonning qadimgi shaharlari yubileylari, jumladan:

Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligi (1997);

Termiz shahrining 2500 yilligi (2002);

Shahrisabz shahrining 2700 yilligi (2002);

Samarqand shahrining 2700 yilligi (2004);

Qarshi shahrining 2700 yilligi (2006);

Marg'ilonning 2000 yilligi (2007);

2009 yilda Toshkentning 2200 yilligi tantanasi;

Har ikki yilda Samarqandda o'tayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa anjumani;

Mustaqillik yillarida shuningdek, o'tkazilayotgan «Yangi avlod», «Vatan yagonadir, Vatan bittadir», «Yangi nomlar» va boshqa ko'rik-tanlovlarni har birining yo'nalishi, o'ziga xos maqsad va vazifalari bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 7 aprel PQ-1091-son «Yagonasan, muqaddas Vatan» respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'risida»gi qarori mamlakatimiz madaniyat va san'at, xususan, yoshlar ijodi ravnaqida muhim hodisa bo'ldi. Bu ko'rik-tanlovning bosh maqsadi: millatimiz, xalqimiz, eng avvalo, ertangi kunimizning ishonchi bo'lgan yoshlarimiz qalbida o'z ona Vataniga bo'lgan mehr va muhabbat, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish, Vatanni sharaflaydigan, ulug'laydigan, qadr-qimmatini, sha'ni, shavkatini ifodalaydigan mazmunan teran qo'shiqlar yaratish, shu bilan birga yoshlar orasidan iste'dod sohiblarini izlab topish va kashf etishdir. Shu bois, ushbu ko'rik-tanlovni o'tkazib

kelinayotgan barcha tanlovlarning umumlashmasi, desak mubolaga bo‘lmaydi.

O‘zbek san’ati jahonga tanilmoqda, ko‘plab folklor jamoalari jumladan, Toshkentning «Kamalak», Andijonning «Sumalak», Xorazmning «Meros» kabi folklor-etnografik ansambllari xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurib, xal-qaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e’tiboriga no-dir san’atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Chet ellarda o‘zbek xalq madaniyati va ijodiga oid ko‘plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. O‘zbek xalq ertaklari, maqollari, iboralari, afsonalari Xitoyda, Eronda, Turkiyada, Olmo-niyada, Amerikada nashr etilgani quvonchli holdir.

Xullas, mustaqillik sharofati bilan xalq ijodining rang-barang turlarining tiklanishi — xalqimizning tarixiy ongi, milliy ma’naviyatini shakllantirish va ravnaq toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ma’lumki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy islohotlar mamlakat Prezidenti Islom Karimov tomonidan taklif etilgan beshta tamoyil bo‘yicha amalga oshirilmoqda. Madaniyat sohasida ham bosh islohotchi — bu davlatning faol boshqaruvchilik roli va o‘rni bo‘lib bu ishlarning muvaffaqiyatini ta’minlamoqda.

**Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O‘zbekiston madaniyat tashkilotlari va muassasalari tizimida ikki yo‘nalish paydo bo‘lmoqda:**

*Davlat madaniyat va san’at tashkilot va muassasalari*

*Nodavlat va jamoat tashkilotlari*

Davlat tasarrufidagi tashkilotlar:

a) Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi tashkilotlar;

b) davlat aksionerlik jamiyatlari, kompaniyalar, birlashmalar: «O‘zbekkino» milliy agentligi, «O‘zteleradio» kompaniyasi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, «O‘zbeknavo» estrada birlashmasi, «O‘zbekteatr» IICHB, «O‘zbekraqs», «Musavvir» ilmiy ijodiy ishlab chiqarish birlashmalari, «O‘zbek-muzey» birlashmasi, «O‘zbekturizm» aksionerlik kompaniyasi va boshqalar.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari:

a) jamg‘armalar;

b) ijodiy tashkilotlar, jamiyatlar va uyushmalar;

v) madaniy-ma'rifiy markazlar.

O'zbekistonda quyidagi jamg'armalar mavjud: Imom al-Buxoriy nomidagi xalqaro xayriya jamg'armasi, Amir Temur nomidagi xalqaro xayriya jamg'armasi, Ibn Sino nomidagi xalqaro jamg'arma, «Oltin meros» xalqaro jamg'armasi, Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma, Sodiqov nomidagi xalqaro jamg'arma, «Sog'lom avlod uchun» xayriya jamg'armasi, «Kamolot» jamg'armasi, Bolalar jamg'armasi, «Iste'dod» jamg'armasi, «Ekosan» xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, O'zbekiston ommaviy-axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi, O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg'armasi, «Mahalla» jamg'armasi va boshqalar.

Ijodiy tashkilotlar, jamiyat va uyushmalar: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston me'morlar uyushmasi, O'zbekiston milliy faylasuflar jamiyati, O'zbekiston tarixchilar jamiyati, O'zbekiston «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi, O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi va boshqalar. Madaniy-ma'rifiy markazlar: Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, O'zbekiston huquqiy madaniyat markazi, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, O'zbekiston ijtimoiy falsafa va milliy tiklanish markazi, O'zbekiston baynalmilal madaniyat markazi, Milliy-madaniy markazlar (rus, ukrain, qozoq, koreys kabi) va xalqaro aloqalar jamiyatlari.

Davlat tizimida yangidan tuzilgan ko'pgina tashkilotlar, masalan, «O'zbektelerradio» kompaniyasi, «O'zbekkino», O'zbekiston Badiiy akademiyasi, «O'zbeknavo», «O'zbekteatr», «O'zbekturizm» kabilar samarali faoliyat ko'rsatishmoqda.

Hozirgi davrda yoshlar ma'naviyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Yoshlar ongida va ma'naviy hayotida bo'shliqning paydo bo'lishiga qarshi mahalliy madaniyat muassasalarining faoliyati g'oyat katta ahamiyatga egadir. Klublar, madaniyat uylari, kutubxonalar, istirohat bog'lari mahalliy aholi va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga va ularni g'oyaviy, ma'naviy kamol topishiga

yanada samarali xizmat qilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-sonli qaroriga muvofiq 2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo‘yicha rejalashtirilgan islohotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar tumanlari (shaharlari) bo‘yicha 1777 ta madaniyat uylari va klub muassasalari negizida, ular tomonidan ko‘rsatiladigan madaniy-ommaviy xizmatlardan keng aholi qatlamlarining foydalanishi ta‘minlanishini hisobga olgan holda, 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlarini (ulardan 38 tasi - imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun) aniqlash va joylashtirish sxemasini tasdiqlash.

– O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan taqdim etilgan buyurtma va texnik talablar asosida madaniyat va aholi dam olish markazlarining uchta namunaviy loyihalarini tegishli loyihalash institutini jalb etgan holda ishlab chiqish, bunda markazlarning qiyofasi va interyerining arxitektura-rejalashtirish yechimlariga yagona yondashuvlarni nazarda tutish.

– Madaniyat va aholining dam olish markazlarining joylashgan o‘rniga va xizmat ko‘rsatiladigan aholiga bog‘liq holda ularning I, II, III tiplari namunaviy shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlari rahbarlari va ijodiy hodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

– Madaniyat va san‘at markazlarida to‘garak ishlarining har bir turi bo‘yicha yangi, zamonaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

– To‘garaklar, studiyalar, havaskorlik birlashmalari badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha yangi uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlari uchun yangi repertuar to‘plamlari ishlab chiqish va ular bilan ta‘minlash.

- Madaniyat va aholi dam olish markazlarini zamonaviy axborot resurslari hamda davriy matbuot nashrlari bilan ta'minlash.
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarining ustavdagi vazifalariga muvofiq bo'lgan (ko'p funksiyali zali mavjud bo'lgan) mos binolarni qidirib topish va ajratish.
- 2013-2018 yillarda madaniyat va aholi dam olish markazlarini mukammal ta'mirlash hamda zamonaviy asbob-uskunalar va anjomlar bilan jihozlashning manzilli ro'yxatlari asosiy parametrlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari axborot-tahlil departamenti bilan kelishish.
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarini, shu jumladan 2013 yilda 37 ta obyektни mukammal ta'mirlash va jihozlashning aniqlashtirilgan har yilgi mintaqaviy manzilli ro'yxatlarini shakllantirish va tasdiqlash.
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarini mukammal ta'mirlash va jihozlashning mintaqaviy manzilli ro'yxatlarini, keyinchalik tegishli protokol bilan tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritgan holda, har yili Iqtisodiyot vazirligiga va Moliya vazirligiga taqdim etish.
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarini muassasalarning turlari bo'yicha jihozlash normativini ishlab chiqish va tasdiqlash.
- Maqbullashtirilayotgan madaniyat uylari va klub muassasalaridagi mavjud, foydalanishga yaroqli musiqa asboblari va anjomlarini yangidan tashkil etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlarining balansiga belgilangan tartibda o'tkazish.
- Madaniyat va aholi dam olish markazlarini tasdiqlangan normativlarga muvofiq zarur musiqa asboblari, mebellar va anjomlar bilan jihozlashni hisobga olgan holda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi yagona buyurtmachi xizmatlari tomonidan madaniyat va aholi dam

olish markazlari obyektlarini mukammal ta'mirlash uchun tanlov (tender) savdolari o'tkazish.

– Mahalliy byudjetlar mablag'lari, shu jumladan madaniyat uylari va klub muassasalarini maqbullashtirish munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar, mahalliy byudjetlarning yil boshidagi bo'sh qoldiqlari, I–III choraklar yakunlari bo'yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilishi, mahalliy byudjetlar xarajatlari bo'yicha tejash natijasida bo'shaydigan mablag'lar, shuningdek jalb etiladigan homiylik mablag'lari va boshqa mablag'lar hisobiga madaniyat va aholi dam olish markazlarini mukammal ta'mirlash (rekonstruksiya qilish) va jihozlashga mablag'lar ajratish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlariga ularning moddiy- texnika bazasini mustahkamlash, madaniy-ommaviy tadbirlarni sifatli o'tkazish, shu jumladan transport xizmati ko'rsatish uchun ularga zarur shart-sharoitlarni tashkil etish masalalarida ko'maklashish.

– Madaniyat uylari va klub muassasalarini maqbullashtirish natijasida bo'shaydigan binolarni mahalliy hokimliklar balansiga qabul qilib olish hamda kelgusida ulardan samarali foydalanish, shu jumladan ularni birja va birjadan tashqari savdolar orqali sotish.

– Yangidan tshkil etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlariga madaniyat uylari va klub muassasalari rahbar xodimlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazish yo'li bilan tanlov asosida malakali rahbar kadrlarni tanlab olish bo'yicha respublika komissiyasini tuzish.

– Attestatsiya o'tkazish to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqish, respublika komissiyasi tarkibini tuzish va tasdiqlash, shuningdek madaniyat va aholi dam olish markazlarining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda rahbar xodimlarni yuqori talabchanlik, qat'iyatlilik va xolisona baholash vaziyatida attestatsiyadan o'tkazish.

– Madaniyat uylari va klub muassasalari sonini maqbullashtirish natijasida bo'shab qoladigan xodimlarni ishga joylashtirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rish va ko'maklashish.

– O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida Toshkent milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida madaniyat va aholi dam olish markazlari uchun tayyorlanadigan ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlarini yo‘nalishlar va mutaxassisliklarni takomillashtirish.

– Ko‘chma treninglar va mintaqaviy seminarlar o‘tkazish yo‘li bilan madaniyat va aholi dam olish markazlari mutaxassislarining malakasini oshirish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarida to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazishga musiqa va san’at maktablari, umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarini ko‘pi bilan 0,5 stavka hisobidan, kontrakt asosida jalb etish.

– Madaniyat va aholi dam olish markazlarida oliy ta’lim muassasalarining tegishli yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha bitiruvchi talabalarining, shuningdek madaniyat va san’at kasb-hunar kollejlari qatnashchilarining o‘quv, ishlab chiqarish hamda diplomdan oldingi amaliyotini o‘tashini (stajirovkasini) ta’minlash.

– Har bir markazning ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasidagi davlat siyosati asosiy yo‘nalishlarini bajarishga qaratilgan yillik kalendar rejalari - tadbirlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

– «Mustaqillik», «Navro‘z», «Xotira va qadrlash kuni», «Konstitutsiya kuni», «Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni», «O‘qituvchilar va murabbiylar kuni» milliy va kasb bayramlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining boshqa kasb bayramlariga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishga madaniyat va aholi dam olish markazlarining yanada keng jalb etilishini ta’minlash.

– Madaniyat va san’at, ma’naviy-ahloqiy rivojlanish hamda milliy o‘z o‘zini anglashning o‘sishi sohalarida O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni keng va to‘liq ochib berishni ta’minlovchi ko‘riklar, ko‘rgazmalar, festivallar va tanlovlarni aholining turli qatlamlarini jalb etgan holda tashkil etish va o‘tkazish.

– Aholi, aynisa yoshlar o‘rtasida O‘zbekistonning boy ma’naviy va madaniy merosini saqlash va targ‘ib etishga yo‘naltirilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqish va

amalga oshirish. Chunonchi, folklor jamoalarini, milliy hunarmandchilik ustaxonalarini tashkil etish.

– O‘quvchilar va talabalarning yozgi ta‘tillari davrida bolalar va yoshlar uchun madaniy-ommaviy va sport tadbirlarini o‘tkazish.

– Qo‘shimcha pulli xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish, shu jumladan madaniyat va aholi dam olish markazlarida pulli to‘garaklar, studiyalar, havaskorlik jamoalari konsertlarini tashkil etish.

– Dastur doirasida bajarilayotgan tadbirlarni, madaniyat va aholi dam olish markazlari qatnashchilarining yutuqlari va muvaffaqiyatlari to‘g‘risidagi materiallarni ommaviy axborot vositalarida hamda Internet tarmog‘ida muntazam yoritib borish.

## **MADANIYAT VA AHOLI DAM OLIISH MARKAZLARIDA MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT TARG‘IBOTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYANOMA**

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, dunyo mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-ma‘rifiy hamkorlik munosabatlari tobora kengayib bormoqda.

Dunyoqarashi, ma‘naviyati va intellektual salohiyati tamomila yangicha bo‘lgan yangi avlod shakllandi. Bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon barchadan yangicha qarash va fikrlashni talab etmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining ma‘naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an‘ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbiga ona yurtga muhabbat, milliy istiqlol g‘oyasiga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan bugungi murakkab va tahlikali davrda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish tobora dolzarblashmoqda. Mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osuda va farovon turmushimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan turli xil mafkuraviy tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish va bu boradagi ishlarni

yanada jonlantirish Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarufidagi barcha madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining muhim bo'g'iniga aylanmoqda.

Shiddat bilan o'zgarib boryotgan zamonda, jamiyatimizda, va dunyoda ro'y berayotgan jarayonlardan ogoh bo'lib borishni talab etmoqda. Tez sur'atlarda o'zgarib borayotgan zamon Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan samarali kurasha oladigan jonkuyar targ'ibotchilarni to'la safarbar etishni taqozo etmoqda. Zero, hozirgi intellektual-axborot asri kun tartibiga voqealar rivojidan bir qadam oldinda yurish, ijtimoiy hodisalarning o'zgarish tendensiyalarini ilmiy bashorat qilib borish asosida faoliyat yuritish, davr bilan hamnafas yashashni taqazo etmoqda.

Bunday vaziyatda Prezidentimizning **“Faqatgina mustaqil fikrlaydigan, iymon-e'tiqodi mustahkam, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan ezgu qadriyatlarga sadoqatli bo'lgan insongina bunday qutqularga uchmasligi, to'g'ri yo'ldan adashmasligi mumkin. Buning uchun, albatta, birinchi navbatda, farzandlarimizni yuksak bilim va ma'naviy fazilatlar bilan qurollantirishimiz, bizga yot va begona bo'lgan turli zararli oqimlardan himoyalanih uchun xalqimizga bu boradagi bor haqiqatni yetkazish, bunday xavf-xatarlardan odamlarni, avvalambor, yosh avlodni haqiqat bilan himoya qilishimiz zarur”**, degan fikrlari bizlar uchun dasturilamal bo'ladi.

Mazkur metodologik ko'rsatma doirasida quyidagi yo'nalishlarda keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

- o'zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy merosini har bir fuqaroning ma'naviy mulkiga aylantirish, milliy o'zlikni anglatish maqsadini ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirish, milliy g'oya va mafkurani xalqimizning ongi va qalbiga chuqur singdirish, uni ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;

- Vatan ozodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etib borish, siyosiy jarayonlarga, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar tahlili asosida jamiyatning har bir a'zosi qalbida milliy g'ururni

kuchaytirish, hech qachon, hech kimga qaram bo'lmalik tuyg'usini kamol toptirish;

- aholining barcha qatlamlarida, xususan, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, ularda dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatda bo'lish hissini uyg'otish;

- jamiyatda o'zaro insoniy munosabatlar, izzat-ehtirom, mehr-muruvvat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish jarayonlarini milliy g'oya va ma'naviyat tamoyillari bilan uyg'un tarzda tizimli va uzluksiz targ'ib etib borishni yo'lga qo'yish;

- turli ommaviy axborot vositalari va Internet tarmoqlarida tarqatilayotgan, urf-odatlarimiz, milliy mentalitetimizga zid, odobsizlik va axloqsizlikni targ'ib etuvchi vayronkor g'oyalarning yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir o'tkazishining oldini olish;

- axloqiy, tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish, yoshlarda yuksak ma'naviy va madaniy sifatlarni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, g'urur va iftixor, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, boy tarixiy-madaniy merosga asoslangan holda mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, xalqimizning azaliy an'ana va urf-odatlariga asoslangan holda jamiyatda o'z o'rnini topish, kasb-hunar egallashga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish;

- madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati orqali yoshlarning yetakchilik xususiyatlarini namoyon qila olishlari hamda boshqaruv mahorati malakasini hosil qilishlariga keng qamrovli imkoniyatlar ochib berilishini ta'minlash;

- yoshlarning turli bilimlarni o'zlashtirish, kasb-hunarlarini egallash sohasidagi faolligini oshirish, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, jismonan baquvvat bo'lishlari uchun ko'maklashish, ijodiy intilishlarini ro'yobga chiqarish;

- yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmunini keng targ'ib etish orqali ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

- “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdidlarning yoshlar hayotiga salbiy ta’sir o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularda qat’iyatlilikni kamol toptirish;

- yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini keng targ‘ib etish va ularning ongida barkamol shaxs idealini shakllantirish orqali zamonamiz qahramonlarini kamol toptirish;

Mazkur ishlarni bajarishda Prezidentimiz I.Karimovning “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” konsepsiyasi hamda “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy jihatdan nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Dini, irqi va millatidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrashga, faol fuqarolik pozitsiyasi va mas’uliyatga ega bo‘lib, milliy iftixor, Vatanga sadoqat va vatanparvarlik, bunyodkorlik, tinchliksevarlik ruhida yashab, mamlakat ravnaqi yo‘lida mehnat qilishlari uchun qulay ijodiy va ma’naviy muhit yaratish asosi bo‘lib xizmat qiladi.

**Ushbu uslubiy ko‘rsatmada madaniyat va aholi dam olish markazlarida ma’naviy, ma’rifiy, mafkuraviy targ‘ibot olib borishning mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:**

- yuksak rivojlangan, demokratik davlatlar qatorida bo‘lishdek oliy maqsadni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilish, amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlar qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini aholining keng qatlamlari orasida jadal targ‘ib qilish, yurtimizga qarshi qaratilgan g‘oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g‘arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka da’vat etish, olimlar, siyosatchi va ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ‘ibot tizimini yo‘lga qo‘yish;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlarining jahon hamjamiyati va dunyo tashkilotlari tomonidan bir ovozdan e’tirof etilganligini keng targ‘ib etish;

- aholining turli qatlamlari, xususan, yoshlar orasida tarixiy xotiraga, milliy o‘zlikka ega bo‘lish zaruratini anglatish borasidagi keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini

olib borish, milliy ma'naviyatimiz obidalarini asrash, e'zozlash va madaniy merosimizni yoshlar tomonidan maqsadli hamda ongli o'zlashtirilishiga erishishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

- mamlakatimizda inson salohiyatini ro'yobga chiqarishning samarali mexanizmlarini qo'llash, inson kapitalini rivojlantirish jarayonlarini keng targ'ib etish;

- ulug' mutafakkirlarimizning dunyo tamadduniga qo'shgan buyuk hissalarini xalqimiz ongi va qalbiga yetkazish hamda shu asosda milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash;

- mamlakatimiz yoshlarini san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini har tomonlama rag'batlantirib borish, kino, teatr san'atining xalqimiz barcha qatlamlari orasidagi ahamiyatini yuksaltirish, ommaviyligini ta'minlash borasidagi tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish;

- aholi turli qatlamlari vakillarining milliy qadriyatlar, tarixiy obidalariga bo'lgan ehtiromli munosabatini yanada oshirish, ayniqsa yoshlarning muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar va muzeylarga tashriflarini tashkil etish;

- yoshlarning intellektual salohiyati, badiiy-estetik didi va saviyasini uzluksiz yuksaltirib borish maqsadida mutolaa madaniyatini rivojlantirish, bu borada o'ziga xos musobaqa va tanlovlarni tashkil etish, "Ziyonet" tarmog'ida har bir ta'lim subyekting o'z elektron-axborot resurslarini yaratish ishlarini ma'naviy rag'batlantirish;

- ma'naviyatning ma'no-mohiyati, milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari, noyob va betakror namunalari, bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish;

- yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va aziz avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug' qadamjolariga ehtirom, diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish;

- mustaqillik – huquq ekanligining mazmun-mohiyatini ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, shuningdek, ta'limdan tashqarida bo'lgan aholi orasida ham tizimli targ'ib etish;

- oila, mahalla, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy ta'lim muassasalari va ta'limdan tashqari muassasalarda komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi hamda ongiga ta'sirchan usul-uslublar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, targ'ibot ishlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etish;

- muqaddas islom dinining ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;

- aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana hamda qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazish;

- milliy g'oya va mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning aholining barcha qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, an'anaviy hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini tanqidiy ochib berish;

- xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati, milliy qadriyatlari va hayotiy udumlariga qarshi qaratilgan mafkuraviy xurujlarga qarshi samarali va tizimli kurash olib borish bo'yicha aniq ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish;

- fuqarolar qalbida erkin tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishga, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar tayyorlash, bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy

axborot texnologiyalari va yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli takliflar hamda tavsiyalar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish;

- yilning har choragida amalga oshirilgan amaliy faoliyat natijalarini viloyat, tuman va shahar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borish shu bilan birga har chorak mobaynida amalga oshirilgan pozitiv o'zgarishlar haqidagi axborotlarni madaniyat muassasalari, mahalla guzarlarida keng jamoatchilikni xabardor etib borish;

- respublikaning taniqli olim-professorlari, jumladan, faylasuf, huquqshunos, sotsiolog, filolog, pedagog va psixologlarni jalb qilgan holda huquqiy madaniy, ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash masalalarida muntazam targ'ibot ishlarini o'tkazib borish, mahalla institutlarida esa ishsizlar, uy bekalari hamda yoshi ulug'lardan iborat aholi qatlamlariga fuqarolarning ijtimoiy ahvolini inobatga olgan holda ma'naviy ko'mak berish mexanizmlarini ifoda etuvchi videoroliklar, bukletlar tayyorlash;

- ayrim kinostudiyalar tomonidan tijorat yo'lida yaratilayotgan saviyasi past va milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga zid bo'lgan filmlar yuzasidan joylarda munozaralar, disputlar tashkil etish va jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

- ayrim voyaga yetmagan yoshlarning ta'lim jarayonlarini tashlab, norasmiy ravishda ishlash uchun chet ellarga ketishining oldini olish va ular o'rtasida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ota-onalar, vasiylar va keng jamoatchilik ishtirokida tushuntirish ishlarini olib borish;

**Uslubiy ko'rsatma bandlarini amalga oshirish mexanizmi quyidagilardan iborat:**

- tuman hamda shahar madaniyat va aholi dam olish markazlarida targ'ibot ishlarini tizimli tashkil etuvchi jamoatchilik kengashini tuzish;

- bolalar, o'smirlar va kattalar uchun mo'ljallangan milliy ma'naviyat targ'ibotiga bag'ishlangan hamda ma'rifiy yo'nalishdagi dolzarb mavzularda hujjatli materiallar, badiiy filmlar, ssenariylar, o'quv uslubiy manbalar tayyorlash;

- aholi turli qatlamlari orasidagi madaniy, ma'naviy-axloqiy muhit holatini o'rganib borish, bu borada tizimli tarzda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, ijtimoiy-ijodkorlik, ma'naviy muhit holatini doimiy monitoring qilib borish;

- umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, uchun 2014-2015 o'quv yiliga mo'ljallangan namunaviy havaskorlik ijodiyoti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini ishlab chiqish;

- madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan qamrab olingan har bir qishloq, mahalla kesimida hududlarning ma'naviy muhiti va ijodkorlik bilan mashg'ullik darajasini ifoda etuvchi mafkuraviy xaritasini tuzish;

- yoshlar bilan ishlashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan tizimli tarzda foydalanish;

- aholi va yoshlarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy masalalarga oid ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy muhit va jamoatchilik kayfiyatini doimiy o'rganib borish;

- targ'ibot ishlarini chekka hududlarda, mahalla va qishloqlarda samarali olib borish maqsadida qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarida joylashgan, mahalla guzarlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

- mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida qurilayotgan mahalla guzarlari tarkibida mahalliy byudjetdan moliyalashtiriluvchi eng kamida beshtadan havaskorlik to'garaklari "Ma'naviyat markazi" va kutubxonalar tashkil etish;

- Har bir madaniyat va aholi dam olish markazi huzurida joylardagi obro'li shaxslardan iborat maxsus analitik guruh tashkil qilish;

## **II BOB Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari**

### **2.1. Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida ssenariyning roli**

Har qanday asar sahna yuzini ko'rishida uning dramatik asosini to'g'ri tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Sahnada bo'layotgan jarayonlar asosan "aktyorvositachi"lar orqali tomoshabinlarga yetkaziladi. Spektaklning dramatik manbai - pesa bo'lsa, ommaviy bayram va tomoshalarni tashkil etishda esa ssenariy yoziladi. Har qanday sahnaviy asar tomoshabin e'tiboriga havola etilgunga qadar 3ta asosiy jarayonni boshidan kechiradi, ya'ni:

1. Sahnalashtirish uchun asosiy manbani tanlash (pesa, ssenariy, inssenirovka kabi);

2. Sahnalashtirish (barcha ijodiy jihatlar, ya'ni aktyorlarni tanlash, stol atrofida o'qish (chitka), mizanssenalar, obraz va rol ustida, rejissyorlik g'oyalari va topilmalari ustida ishlash va boshqa ijodiy ishlar);

3. Tashkiliy ishlar (professional teatrlarda va respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda tashkiliy ishlarning deyarli ko'pchiligini ma'muriy bo'limlar bajaradilar, ammo joylarda tashkil etilgan havaskorlik teatr kollektivlarida, madaniy tadbirlar, ommaviy bayram va tomoshalarni tashkil etishda bu vazifani ijodiy guruh rahbarlari o'zlari bajaradilar).

Tadbirni tashkil etish va ssenariysini yaratish uchun manbalar quyidagi jihatlarga qarab tanlanadi:

1. Asar mavzusining dolzarbligi (ijtimoiy ahamiyati, zamon talablariga mos kelishi);

2. Asarning tarbiyaviy ahamiyati (har qanday ijodiy jarayonlar asosida tarbiyaviy masalalar yotishi zarur);

3. Asar qahramonlarining faol xatti-harakatlari (insonlarning har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishlari va o‘z maqsadlariga erishishlarini badiiy vositalarda yetkazish);

4. Buyurtma asosida (ko‘pgina holatlarda asarlar buyurtma asosida sahna yuzini ko‘radilar. (Bunda yuqori tashkilotlardan ma'lum bir mavzu asosida tadbir tashkil etish vazifasi shu muassasa rahbarlariga yuklanadi. Rahbar esa birinchi galdagi vazifasi ijodiy guruhni tuzadi va ish boshlaydi).

Spektaklning dramatik asosi pesadir. Pesa (fr. “riese”) - butun yoki ulush so‘zidan olingan bo‘lib, xilma-xil sahna asarlarining umumiy nomidir. Ko‘pgina teatr san'ati haqida yaratilgan adabiyotlarda dramatik manba (pesa, inssenirovka), aktyor va rejissyor teatr san'atining asosini tashkil etadi, deb aytilgan. Bir jihatdan olib qaralganda, bu fikrga qo‘shilish mumkin. Ammo bitta spektaklni sahnalashtirish uchun bir qancha san'at turlaridan foydalaniladi, undan tashqari texnik, ma'muriy xodimlar, badiiy rahbariyat, ijodiy xodimlar (masalan, birgina Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek Davlat Akademik katta teatri jamoasining umumiy soni 500 kishidan ortiq) va boshqalarning ham hissalarini haqida gapirsak, unda boshqacha fikr yuritishimizga to‘g‘ri keladi. Ammo ikkala holatda ham spektakl yaratish mumkin.

Teatr san'atida aktyorning o‘zi asosiy ifodalovchi, ya'ni dramaturgning fikrini ifodalab beruvchi hisoblanadi. Aktyor o‘z navbatida ovozi, plastik xatti-harakatlari, jestlar, mimikalar orqali obraz yaratadi.

“Teatr –hayot ko‘zguisi, san'at darsxonasi, muqaddas dargoh. Teatrning eng asosiy burchi esa- tomoshabinni g‘oyaviy va ahloqiy- estetik jihatdan tarbiyalashdir. Uning vazifasi ahloqiy-estetik sharoitni yaxshilashga xizmat qilishdir”<sup>1</sup>. Aktyor esa mana shu muqaddas dargohdan turib, asar mazmuni va

---

<sup>1</sup> Abdusamatov A. Teatr tanqid ko‘zguisida. Toshkent, "Fan", 1993yil, 31-bet.

muallifning aytmoqchi bo'lgan fikr-mulohazalarini tomoshabinga yetkazuvchi vositachi sifatida gavdalanadi.

Dramaturgiyaning barcha qonun-qoidalariga rioya qilingan holda yaratilgan asarlar to'laqonli asarlardan hisoblanadi. Pesa tanlangach, ijodiy guruh bilan tahlil qilinadi va sahnalashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Madaniy tadbirlarda esa asosiy manba ssenariy hisoblanib, u tadbirni tashkil qilishdagi ilk jarayondir.

“Ssenariy” so‘zi, U.Qoraboev o‘zining “Badiiy-ommaviy tadbirlar” kitobida yozishicha, italyancha so‘zdan olingan bo‘lib, "asarning plani, sxemasi"ni anglatadi<sup>2</sup>. Lug‘atlarda esa ssenariy:

- 1) kinossenariy;
- 2) teatrdagi qo‘yiladigan dramatik asarning rejasi, syujet chizig‘i, operadagi dramatik harakatning tasviri, baletda – syujetning barcha raqs va mimikalarini o‘z ichiga olgan mukammal bayoni;
- 3) pesada ishtirok etuvchilarning sahnaga chiqish payti va tartib ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqdir, deb izoh etilgan.

Yana boshqa manbalarda - “Ssenariy” (italyancha “Scenario” - adabiy-dramatik asar degan ma'noni anglatadi), tadbir mazmunini adabiy ta'svirlash bo‘lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo‘lmish mavzu va g‘oya, bir bo‘lakdan ikkinchisiga o‘tish, bloklar, bezaklar, matnlar to‘liq ko‘rsatiladi, deb yozilgan. Ammo har qanday holatda ham ssenariy - o‘tkaziladigan tadbirlar, bayram va tomoshalarning to‘liq yozma bayonidir<sup>3</sup>, deb ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Ssenariy yozilishida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- tadbir o‘tkaziladigan joy o‘rganiladi;
- mahalliy sharoitdan mavzu, tadbir g‘oyasidan kelib chiqqan holda manbalar izlanadi;

---

<sup>2</sup> Qoraboev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. T., “O‘qituvchi”, 1986. 36 b.

<sup>3</sup> .Rustamov V.. Sahnaviy ifoda vositalari, T., 2007y, 27 bet.

- hujjatli materiallar badiiylashtiriladi;
- sahnaviy usullardan, foydalanish yo‘llari izlanadi, ta'sirchan vositalar tanlanadi.

Rejissuraning ixtisosliklari ko‘p bo‘lganidek, (masalan, teatr rejissurasi, televidenie rejissurasi, radio rejissurasi, qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va h.k. kabi) ssenariy ham turli ixtisosliklari va tabiati bo‘yicha bir qancha turlarga bo‘linadi. Masalan:

1.Kino ssenariy –(badiiy filmlar ssenariysi, hujjatli filmlar ssenariysi, ilmiy-ommabop filmlar ssenariysi, qo‘g‘irchoq va multifilmlar ssenariysi).

2.Televizion ssenariylar – (adabiy-badiiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, publitsistik – axborot ko‘rsatuvlar ssenariysi, ma'naviy- ma'rifiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, ijtimoiy-siyosiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, o‘yin-ko‘ngil ochar ko‘rsatuvlar ssenariysi, televizion filmlar ssenariysi, musiqiy ko‘rsatuvlar ssenariysi va h.k.)

3.Radioeshittirishlar ssenariysi – (ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar ssenariysi, adabiy - badiiy eshittirishlar ssenariysi, publitsistik-axborot eshittirishlari ssenariysi, musiqiy eshittirishlar ssenariysi, ma'naviy – ma'rifiy eshittirishlar ssenariysi, o‘yin-ko‘ngil ochar eshittirishlar ssenariysi va h.k.)

4.Sirk tomoshalari ssenariysi – (Turli sport tomoshalari, akrobatlar, hayvonlarning chiqishlari, masxaraboz va yakka nomerlar, dorboz va h.k. nomerlarining ketma-ketligidan iborat bo‘ladi).

5.Ommaviy tadbir va tomoshalar ssenariysi –(ommaviy teatrlashtirilgan tomosha, teatrlashtirilgan konsert, adabiy-badiiy, adabiy musiqali kompozitsiyalar, marosim tomoshalari, ommaviy sport tomoshalari, suvda, muzda o‘tkaziladigan tomoshalar, karnaval, xalq tomoshalari, badiiy-publitsistik kompozitsiyalar va h.k.lar ssenariylari kiradi).

Ssenariychilik mahorati asosan uchta tamoyilga tayanadi, ya'ni ijodiy kuzatishning shakllanishi (ssenariychi uchun juda ham kerak bo‘lgan hayotiy materiallarni topib, ajrata olish), dramatik fikr qilishni rivojlantirish – (ssenariy ustida ishlashda zarur bo‘lgan dramaning umumiy nazariyasiga rioya qilgan

holda syujetlar ketma-ketligi va tadbirning kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilash), ijodiy tasavvur va obrazli xal etish.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, madaniy tadbirlarni tashkil etish muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlardan hisoblanadi. Ssenariyning yaratilishi va uni ma'lum kompozitsiya shakliga keltirish va sahnalashtirish, ijodiy guruhning shu tadbir yoki tomoshani tashkil etishdagi qarashlarning mehnatlarini natijasi sifatida qaralmog'i lozim. Birinchidan, bu ikki ijodning (rejissura va ssenariy) mohiyatini bir-biridan ajratish mumkin emas. Alohida yozilgan tayyor ssenariylar uchun ham sahnalashtirish ishlarini amalga oshirish mumkin, lekin rejissyor bilan ssenaristning birga yaratgan ijod mahsuli samaraliroqdir. Chunki rejissyor tadbir, bayram, teatr tomoshaning g'oyasini, uning ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ahamiyatini, oliy maqsadini uqtirsa, ssenarist esa badiiy estetik matnning jozibali, ifodaviy qarashlari orqali rejissyor fikrini boyitib to'ldiradi, natijada to'laqonli tadbir amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, madaniy tadbirlar tayyor jihozlangan binoda emas, balki ochiq havoda, maydonlarda, bog'(park)larda, xullas, bir so'z bilan aytganda noan'anaviy sahnaviy sharoitlarda o'tkazilishini hisobga olish zarur. Sahnaviy imkoniyatlarning yo'qligi (sahna, jihozlar, aktyorlar, chiroq, dekoratsiya va h.k.) madaniy tadbir tashkilotchisi ishni "nol"dan boshlashiga to'g'ri keladi. Undan tashqari, doimiy repetitsiyalar o'tkazish imkoniyati kamligi, tadbirning bir martagina o'tishini, xatolarni to'g'rilashning deyarli imkoni yo'qligini hisobga olib tadbir tashkilotchilari xatoga yo'l qo'ymasliklarini hisobga olgan holda yondashishi zarur.

Uchinchidan, ssenariy yaratilishida bo'lajak tadbirning yo'nalishi, ya'ni yetakchi xatti-harakat, tadbir shakli, muhit va stilni aniqlab olishi lozim bo'ladi. Rejissyorning g'oyalarini amalga oshirishda ssenaristning vazifasi ulkandir. Rejissyorlik g'oyalarini yuzaga chiqarishda - o'tkaziladigan tadbirning aniq berilgan shart-sharoiti, ya'ni uning mavzusi, g'oyasi va oliy maqsadi, o'tkaziladigan joy, ijodiy guruhlarning mavjudligi, tashkil etishdagi moddiy jihatlar, hujjatlar, afsonalar va boshqalar asos bo'la oladi.

To'rtinchidan, ssenariy yaratilishida hujjatli, mahalliy materiallarga tayanish - tadbirning effektli, ta'sirchan chiqishini ta'minlaydi. Bunda minoralar, toshlar, daraxtlar, devor va boshqalar majoziy ma'noda badiiy obraz shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Real dalillar, raqamlar, buyumlar, fotosurmlar, hujjatli kinofilmlardan foydalanish, shu tadbirga aloqador qahramonlarning o'zlarining bevosita ishtiroklari va boshqa original topilmalar tadbirning ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, urf-odat, an'ana, marosim va qadriyatlarni tadbir o'tkazilayotgan hudud muhitiga moslashtirish, ulardan unumli va to'g'ri foydalanish va buni tadbir g'oyasiga singdirish orqali yoshlarni qadriyatlarimizni asrash va ulug'lash ruhida tarbiyalash ssenariy yaratishdagi eng e'tibor qaratish zarur bo'lgan qismlardan biridir.

Oltinchidan, ssenariy yaratish jarayonida bir epizodni ikkinchi epizodga bog'lashda "g'oyaviy ko'prik"ni to'g'ri tanlash muhimdir. Ba'zan bu vazifani "boshlovchilar" amalga oshiradilar. Lekin bu oddiy, sodda variantdir. Nomerlarni, epizodlarni bir-biriga sahna ortidan e'lon qilish, boshlovchilar, masxarabozlar, qo'g'irchoqlar, turli asarlar qahramonlari va boshqa obraz va vositalar orqali ham bog'lash mumkin.

Keyingi paytlarda keng miqyosda nishonlanayotgan bayramlarda fonogrammalarni montaj qilish asosida bir-biriga bog'lashga harakat qilinyapti. Nomerlar yoki epizodlarni bog'lash vositasi bo'lmish "g'oyaviy ko'prik"ni to'g'ri belgilash - tadbirdagi ortiqcha pauzalarning oldini oladi, o'rnini to'ldiradi, shuning bilan birga sahna jihozlarini almashtirish yoki keyingi nomerga tayyorlanib olish imkoniyatini beradi, eng asosiysi tomoshabinni tadbir g'oyasidan fikrini "uzilib" qolishidan saqlaydi.

Shuning uchun ham rejissyor Baxtiyor Sayfullaev to'g'risidagi kitobda yozilganidek, "yaxshi, puxta yozilgan ssenariy - tadbir yoki tomoshaning yarim muvaffaqiyatidan dalolat beradi"<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Rustamov V. Q. Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari. T., 2008.

Hozirgi kunda respublika miqyosida o'tkazilayotgan barcha bayramlarda yurtimizning ko'zga ko'ringan ijodkorlari Abdulla Oripov, Erkin Voxidov, Bahodir Yo'ldoshev, Nosir Otaboev, Jumaniyoz Jabborov, Edvard Kolosovskiy, Rustam Hamidov, Baxtiyor Sayfullaev, Marat Azimov va boshqalar ssenarist va ssenariy hammualliflari bo'lib ishtirok etib kelmoqdalar. Ular yurtimizda bo'layotgan chuqur o'zgarishlarni, O'zbekiston kelajagi buyuk ekanligiga ishonish, Vatanni sevish, o'z ishiga, Vataniga, oilasiga mehr-oqibatli bo'lish, mamlakatning rivojlanishida yoshlarning o'rnini belgilash, qariyalarga hurmat e'tiborda bo'lish kabi xususiyatlarni turli badiiy vositalar orqali o'z ssenariylariga jo qilib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etishga intilmoqdalar va buning uddasidan ham chiqmoqdalar. Ular sahnalashtirgan bayram va tomoshalari orqali O'zbekiston timsolini ko'klarga ko'tarib, uning ravnaqiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Madaniy tadbirni tashkil etishdagi eng qiyin jarayon tadbirni yagona mavzu chizig'iga yo'naltirishdir. Shu mavzuga mos manbalar izlash, sahna, ya'ni, tadbir o'tadigan joyni jihozlash, ishtirokchilarni to'plash, vazifalarni tushuntirish va repetitsiyani boshlashdan oldin ssenariy rejissyorning qo'lida bo'lishi shart.

Rejissyor B.Sayfullaev ssenariy yaratish haqida gapirib, uni 3 xil toifaga ajratadi, ya'ni oddiy ssenariy (mavjud materiallarni ketma-ketligi belgilanib, boshqaruvchi bog'lovchi sifatida ishtirok etadi), yig'ma ssenariy (turli xil ssenariylardan ishlatilgan materiallardan foydalangan holda yoziladi) va original ssenariy (tomoshabin ko'z oldida o'zi kutmagan turli burilishlarga, to'qnashuvlarga, hissiyotlarga duch keladi va natijada u zerikmaydi, tadbirdan estetik zavq oladi).

Darhaqiqat, yurtimiz mustaqillikka erishgach, madaniy tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda, tomoshabinning ko'z o'ngida o'zi orzu qilgan shart-sharoitlarni yaratish, tasavvuridagi ruhiyatga erishish ssenaristning yelkasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Original ssenariy yaratish barcha ssenaristlarning qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun ssenaristning dunyoqarashi keng, saviyasi o'ta kuchli va yuqori darajada

bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun ham madaniy tadbirlarni tashkil etishda ssenarist bilan ishlash jarayoni eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Ssenariyning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri belgilashda ssenarist, ayniqsa rejissyor juda sinchkov bo‘lishi zarur. Chunki ssenariyning kompozitsion tuzilishi tadbir yoki tomoshaning yaxlitligini ta‘minlaydi. “Kompozitsiya” deyilganda, san‘at asarlarining tuzilishi, ichki elementlarining ma‘no jihatdan o‘zaro bog‘lanishi, mantiqan joylashishi va birlashishi tushuniladi.

Kompozitsion tuzilish quyidagi bo‘lak (punkt) lardan iborat bo‘ladi. Adabiy asarda voqeaning boshlang‘ich qismi muqaddima, ekspozitsiya yoki kirish, rejissura sohasida esa xatti-harakat bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun prolog deb nomlanadi. Demak, kirish (prolog), tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, yechim - adabiy va dramatik asarlarning kompozitsion tuzilishini tashkil etadi.

Ba‘zan tadbir ssenariysining kompozitsion tuzilishini prolog, epizodlar qatori va final bilan belgilash mumkin. Chunki ko‘pgina tadbirlar (bayram, tomosha, teatrlashtirilgan konsert va boshqalar)da voqea bir mavzu ustida emas, bir necha epizodlardan iborat bo‘lib tashkil qilingan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham ssenariysining kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri belgilash o‘tkaziladigan tadbirning mohiyatini to‘laqonli yoritib berishga xizmat qiladi.

Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi, uning originalligiga erishish – o‘tkaziladigan tadbirning yuqori saviyada o‘tishiga kafolatdir.

Ssenariyda asosiy ifoda vositalarini - obrazli yechim, original usullar, teran matn va mahorat bilan qurilgan kompozitsion tuzilishlarda kuzatilishi mumkin. Bunga rejissyor B.Sayfullaev boshchiligida sahnalashtirilgan (1998yil) teatrlashtirilgan “Futbol –shou” dasturi uchun yozilgan ssenariyni misol tariqasida keltirish mumkin. Unda yurtimizning mashhur qiziqchi va estrada xonandalaridan iborat san'atkorlarning professional futbolchilar bilan maydonga tushishining o‘zi bir original topilmadir. Chorlov musiqasi yangragach, sahnaga diametri ikki metrga yaqin keladigan ramziy futbol to‘pining maydon uzra yengil xatti-harakatlari tomoshabinda chuqur taassurot qoldirishini ssenariy yozilishidayoq payqab, uni qanday ifodalash yo‘llari izlangan. To‘pni

harakatlantirishning turli variantlari o‘ylab ko‘rildi. Oxiri bir to‘xtamga kelindi, ya'ni bitta aktyorga xuddi maska shaklida boshiga moslab kiydirildi va u sahna uzra tez harakat qilib, turli plastik harakatlar orqali tomoshaning prolog qismini boshlab berdi.<sup>5</sup>

Madaniy tadbirlarning barcha shakllari uchun ham ssenariy yozilishi bu ijobiy holdir. Madaniy-ma'rifiy muassasalari ssenariysi – bo‘lg‘usi tomoshaning so‘zlar, dalillar orqali bayon etilgan mantiqidir. Madaniy tadbirlarning ba'zilari, masalan, tematik konsertlar, savol-javob uchrashuv, raqs kechalari, og‘zaki jurnallar, askiya kechalari, “Quvnoqlar va zukkolar” bellashuvlari kabilar lirik tabiatiga ko‘ra detallashtirilgan ssenariyni talab qilmaydi. Ular uchun ssenariy rejasi (plani) tuziladi. Bunday tadbirlarda kechada so‘zga chikuvchilarning nomlari, nomerlar, nima hakida so‘z borishi qisqacha yoziladi. Ssenariy rejasi – turli chiqishlarning qisqacha bayoni, aniq dramatik holatlarning qisqa qaydlaridir.

Ammo, ko‘pgina hollarda tadbirlar zo‘rma-zo‘raki tarzda tashkil etiladi. Tadbir tashkilotchilari yuqori tashkilotlardan olgan vazifalarni “tezroq o‘tsa bo‘ldi” qabilida ish tutadilar. Tadbir o‘tdi, deb rasmlarga tushib, bayonnomalar tuzish bilan ish bitmaydi. Har bir tadbirning oldiga katta maqsadlarni qo‘ygan holda o‘tkazish kerak. Tadbirning katta yoki kichigi bo‘lmaydi. Bu faoliyatning barchasining vazifasi insonlarga to‘g‘ri tarbiya berish, ma'naviy boyitish, bo‘sh vaqtlarni to‘g‘ri tashkil etish va boshqa ijobiy hislarni jo etishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

---

<sup>5</sup> Rustamov V.Sahnaviy ifoda vositalari, T., 2007y,35-bet

## 2.2. Uslubiy rahbarlikning demokratik jamiyatda tutgan o‘rni

*“Bizning boshlagan yo‘limizni, yani totalitar tuzumdan voz kechib, yurtimizda ochiq demokratik jamiyat qurish..., ozod va farovon hayot barpo etishdek say – harakatlarimizni xalqimiz qo‘llab – quvvatlamoqda... biz o‘zimiz intilgan fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida hech kimdan kam bo‘lmaydigan marralarga yetish uchun boshlangan islohotlarimizni izchil va qat’iyatlik bilan davom ettirish va yanada chuqurlashtirishni hozirgi vaqtda hayotning o‘zi taqozo etadi.”*

*Islom Karimov*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘z oldiga huquqiy demo-kratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyati barpo etishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Demokratik jamiyat qurish maqsadlari esa ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ko‘pgina muammolarni o‘z ichiga oladi. Demokratik jamiyat barpo etish, demokratiyaning qoidalari, prinsiplari, tamoyillariga tayanish bilan bir qatorda har bir mamlakat va xalqning o‘ziga xos milliy-ma’naviy xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

O‘zbekiston ham o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini belgilab olishi, bu yo‘ldagi strategik vazifalar va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishi zarur edi. Ularni aniq belgilab olmasdan

turib mustaqillikni saqlab qolish mumkin emas edi. Chunki maqsadlar va ularni amalga oshirishning ilmiy jihatdan asoslangan konsepsiyasining bo'lmashligi, albatta, jamiyatni parokandalikka olib keladi.

Tabiiyki, ana shunday murakkab bir paytda O'zbekiston uchun o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o'z andozasini ishlab chiqishi g'oyat dolzarb va ahamiyatli edi. O'z navbatida, bunday vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, e'tiqodi, ruhiyati shuni taqozo etardi. Ayni chog'da, O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish andozasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali qismini o'zlashtirish bilan birga O'zbekiston xalqining turmush tarzi va an'analariga ham tayanish lozim edi. Shuning uchun ham, O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki kunidanoq, "jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi".<sup>6</sup>

Albatta, mamlakat uchun hayot mamot bosqichi bo'lgan bir paytda uning yangi jamiyatga o'tishi bilan bog'liq vazifalarini hal etishni yangi sharoitga mos boshqaruv tizimini ishlab chiqishni, jamiyatning iqtisodiy asosini vujudga keltirishni, shuningdek aholining barcha qatlamlarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi g'oyalar tizimini yaratishni taqozo etadi. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li ana shu tarzda shakllandi. Mamlakat istiqlolining tashabbuskori va rahnamosi sifatida Prezident Islom Karimov xuddi ana shunday paytda o'zining qat'iy ilmiy jihatdan asosli, hayotiy jihatdan yashovchan xulosqalarini o'rta tashladi.

Prezident Islom Karimov qator asarlarida sobiq ittifoqdan qolgan meros va tajribalardan foydalanish, respublikaning qulay jo'g'rofiy-siyosiy imkoniyatlarini hisobga olish, bozor munosabatlariga o'tishda ijtimoiy ong va psixologiya masalariga e'tibor berish, O'zbekiston siyosatini belgilashda islom diniga munosabatni tubdan o'zgartirish, respublikaning boy moddiy-ma'naviy hamda

---

<sup>6</sup> Islom Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992. 10-b.

ishlab chiqarish potentsiali va kadrlar kuchidan unumli foydalanishga katta e'tibor berish lozimligini uqtirdi. Ushbu xulosalar Islom Karimov tomonidan muntazam to'ldirilib, qadam – baqadam yangi qoida va yo'l- yo'riqlar bilan boyitib borildi.

Prezident Islom Karimovning O'zbekistonni huquqiy demokratik davlat sifatida qaror toptirishning dasturiy qoidalari, mamlakatning bozor munosabatlariga o'tishi, ichki va tashqi siyosatni shakllantirish tamoyillari, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustuvorliklari va yo'nalishlari jahon tajribasini yanada rivojlantirdi, ularni yangi qoidalar bilan boyitdi.

Bozor munosabatlariga o'tishning shunday yo'li tanlandiki, unda respublikamizning taraqqiyot darajalari, aholining turmush darajalari, milliy urf-odatlar, an'analar, demografik jarayonlar, aholining mehnat qilish imkoniyatlari va boshqa bir qator omillar hisobga olindi.

Ana shunday omillarni hisobga olib, Prezidentimiz O'zbekistonda qurilmoqchi bo'lgan jamiyatning taraqqiyot modelini ishlab chiqdi. U taraqqiyotning "O'zbek modeli" shaklida vujudga keldi.

Aynan ana shu tamoyillarda bir tomondan milliylik, ikkinchi tomondan umuminsoniylik yo'nalishlari uyg'unlashdi yoki ularning dialektik mutanosibligi o'z aksini topdi. "Birinchi tamoyilimizda,- deb yozgan edi Islom Karimov, - avval iqtisod, keyin siyosat degan shiorni olg'a surdik"(2). Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi kerak.

Uchinchidan, konstitusiya va qonunlarga rioya etish ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, aholining demografik tor qismini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish lozim. Aholini ijtimoiy himoyalash choralarini ko'rish lozim.

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi "inqilo-biy sakrashlarsiz" ya'ni, evolyusion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqich-ma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Bu qoidalar o‘z istiqlol va rivojlanish taraqqiyot yo‘limizga asos qilib olingan bo‘lib, o‘tish davri dasturining negizidir.

Mazkur tamoyillar bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishning milliy tamoyillari bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bu tamoyillarda bir tomondan milliylik, ikkin-chi tomondan, umuminsoniylik yo‘nalishlari uyg‘unlashganligini yoki ularning dialektik mutanosibligini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, demokratik jamiyat barpo etishning umumjahon e’tirof etgan asosiy tamoyillari ham mavjudki, ular quyidagilardan iborat:

- erkin va adolatli saylovlar;
- ochiq va hisobot beruvchi hukumat;
- inson xuquqlarining ustuvorligi;
- hokimiyat organlarining saylab qo‘yilishi;
- qonun ustuvorligi;
- so‘z, matbuot, vijdon erkinligini konstitusiya va qonunlar bilan kafolatlash;
- fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy xuquqlari mavjudligi, tengligi;
- tayinlash yo‘li bilan shaklanadigan davlat organlarining saylab qo‘yiladigan organlar oldida hisob berishga burchliligi;
- umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlar-ning o‘tkazilishi;
- mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi;
- siyosiy muxolifatning ochiq faoliyat ko‘rsatishi;
- jamiyatda plyuralizm ya’ni, fikrlar xilma-xilligi, rang barangligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi hamda ularni amaliy hayotga joriy etish masalalarining samarasi ortishi.

O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy tamo-yillarning asosini tashkil etuvchi qadriyatlar ham alohida o‘rin tutadi. Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning dastlabki kunlarida O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini belgilab berar ekan, milliy qadriyatlarning tiklanishi ijtimoiy-

ma'naviy sohadagi eng muhim vazifalardan biri, deb ko'rsatdi. Milliy qadriyatlarni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Negaki, biron-bir jamiyat ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasav-vur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning sharqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o'tmishidagi uzoq davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganligi boisi ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo'lganligidir.

“Biz – deb ta'qidlaydi Islom Karimov, - ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'-naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”.<sup>7</sup> Demak, O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib bo'lmaydi.

Ota-bobolarimiz bizga qoldirgan boy va rang-barang merosni, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan ijodiy boyitib, kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllan-tirib, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirish - mustaqillik poydevorini mustahkamlashning asosiy garovidir. “Hozirgi eng muhim va dolzarb vazifamiz, deydi Islom Karimov, jamiyatimiz a'zo-larini, avvalambor voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol topti-rish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga nisbatan mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umubashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir”.<sup>8</sup>

Hech bir xalq o'zligini anglamasdan, milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini asrab-avaylab saqlamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray olmaydi. Mustaqil O'zbekiston-ning kuch qudrati xalqimizning

<sup>7</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997, 137-b.

<sup>8</sup> Karimov I.A. Hushyorlikka da'vat. –T.: O'zbekiston, 1999, 16-b.

umuminsoniy qadriyatlariga sodiq-ligidadir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy, hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida “qadriyatlar”, “Milliy tiklanish”, “Milliy ong”, “Milliy g‘urur” kabi atamalar tez, tez ishlatiladigan bo‘lib qoldi. Bu bejiz emas, albatta. Zotan, mustaqillik ayni paytda milliy tiklanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, qatag‘onchilik siyosati va tuzumi davrida bu atamalarni ishlatish u yoqda tursin, ularni hatto o‘zbekcha lug‘at boyligidan surib chiqarishga harakat qilingan edi. Bunga dalil sifatida 1959 yili Moskvada “Xorijiy va milliy lug‘atlar davlat nashriyoti” tomonidan chop etilgan 40 mingdan ortiq so‘zdan iborat “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”ga ham, 1988 yilda O‘zSE Bosh tahririyati chop etgan 50 ming so‘zlik “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”ga ham “Qadriyat”, “Milliy ong”, “Milliy tiklanish”, “Milliy g‘urur” tushunchalarining kiritilmaganligini ko‘rsatish mumkin.

Xo‘sh, “qadriyat” o‘zi nima?

“Qadriyat” atamasi bizga arabcha “qadr” so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, bugungi kunda bu tushuncha “borliq va jamiyatdagi biror-bir narsa va hodisaning kishilar o‘rtasidagi, o‘zaro ijtimoiy munosa-batlardagi tutgan muhim ahamiyatini ifoda etishi uchun qo‘llanil-moqda.

Qadriyatlarni G‘arbda “Aksiologiya” fani o‘rganadi. U keng tarqalgan falsafiy fanlardan biridir.

Ko‘pchilik kishilar qadrlanadigan narsalar, hodisalar, masa-lan, qimmatbaho buyumlarni qadriyat deyishadi. Aslida esa shular-ning ijtimoiy ahamiyati qadriyatlarining haqiqiy bahosini aniq-laydi. Biror narsa, voqea yoki hodisaning qadri uning moddiy–iqtisodiy bahosidan katta farq qilishi mumkin. Masalan, ming yil oldingi buyumni (masalan xumdon) ishlatish mumkin emas. Uning iqtisodiy qiymati kam, ammo, meros sifatidagi qadri ancha yuqori bo‘lishi mumkin.

Demak, qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga va maqsadlariga xizmat

qiladigan, shu tufayli ular tomonidan baho-lanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunish lozim.

Mazkur ta'rifdan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar:

**Birinchidan**, voqelikda mavjud bo'lgan tabiat va jamiyat ne'matlari;

**Ikkinchidan**, ularni qadriyat turkumiga kiritish yoki kirit-maslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, orzu-umidlari bilan belgilanadi;

**Uchinchidan**, tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarining qadriyatlar turkumiga kiritilishining asosiy sababi kishilar ularni qadrlaydi, avaylab-asraydi, chunki, bu qadriyat ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi.<sup>9</sup>

Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o'xsha-maydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analardagi o'ziga xoslik ham bor. Ma'lumki, qadriyatlar ma'lum sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlar-ning eng yetuklari va umummilliy manfaatlarga moslari asta-sekin saralanib umummilliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlarini yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u mahalliy qadriyatlarining eng yaxshilarini o'z darajasiga ko'taradi va ularni voyaga yetkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi yoki aksincha. Umuminsoniy qadriyatlarini o'zidagi har bir kishining boyligiga aylantiradi. Har bir millatning o'z milliy qadriyatiga munosabati qanchalik ehtiyotkor va faol bo'lsa, u millatning jahon hamjamiyatidagi o'rni, obro'si, unga ajratiladigan e'tibor, hurmat shu darajada baland nufuzi shu darajada yuksak bo'ladi.

Mintaqaviy qadriyatlar – iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, urf-odatlari, an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi. Mintaqaviy qadriyatlarga misol sifatida Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman xalqlariga xos bo'lgan qadriyatlarini eslatib o'tish mumkin. Bu diyorda unib o'sgan mazkur xalqlarning tarixi, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari va an'alarida juda ko'p umumiylik mavjud. Ular hamisha bir-biriga og'a-ini bo'lib yashaganlar. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan-asrlarga meros bo'lib kelayotgan jarayonida

---

<sup>9</sup> J. Tulenov, B. Qodirov, Z. G'ofurov. Ma'naviy yuksalish sari. –T.: Mehnat, 2000, 103-104-betlar.

shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshidan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o'zida mujas-samlashtirgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yarata olgan.

Markaziy osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi o'ziga xos jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom.
2. Ajdodlar xotirasiga sadoqat.
3. Kattalarga hurmat, yoshlarga izzat.
4. Insoniy muomalada mulozimmat.
5. Hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi.

Umuminsoniy qadriyatlar, eng avvalo jamiyat va inson uchun eng qadrli va uning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiluvchi umumijti-moiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, hodisalar, faoliyat va boshqalar-ning nomi, ularni ijtimoiy ifodalash uchun ishlatiladigan tushun-chalar bo'lib hisoblanadi. Demak, umuminsoniy qadriyat deganda, jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir kishining hayotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosa-bati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezoni sifatida baholanadi. Masalan, erkinlik, tinchlik, tenglik, mustaqillik, birodarlik, demokratiya va h. k.

Demak, qadriyatlar:

1-dan. Jamiyatning boyligi, poydevori. Uni avaylab asrash va rivojlantirish har bir insonning muqaddas burchidir.

2-dan, Qadriyatlar o'tmishni bugun va kelajak bilan bog'lay-digan vosita.

2-dan. Qadriyatlar ma'naviy yetuk barkamol insonni tarbiyalov-chi, ularni kamolotga yetaklovchi kuch.

4-dan. Qadriyatlar jamiyatimizni jahon hamjamiyatiga qo'shuvchi ishonchli vosita.

“Biz bugun ayrim davlatlardan, - deydi I. Karimov, moddiy nuqtai nazardan orqaroqda bo'lsakda, (bunga ko'pgina tarixiy obyektiv sabablar bor), ma'naviyat nuqtai nazaridan qaraganda ulkan g'u-rur bilan aytishimiz mumkin: buyuk

ajdodlarimizdan qolgan qad-riyatlar va urf odatlarga, nasl-nasabimiz va qonimizga singib ket-gan buyuk hayotbaxsh kuchga egamiz. Bu borada ustunligimiz butun ma'rifiy dunyoda e'tirof etilgan. Ana shu qutlug' merosga munosib bo'lib yashash, bu beqiyos boylikni yanada boyitib rivojlantirish, milliy o'zligimiz va umuminsoniy qadriyatlar asosida kelajak binosini barpo etish muqaddas burchimizdir".<sup>10</sup>

Hurmatli Prezidentimizning yuqoridagi fikrlariga asoslanib aytish mumkinki, haqiqatdan ham O'rta Osiyo xalqlari azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga mislsiz, ulkan hissa qo'shganlar. Ajdodlarimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan fan va madaniyatning barcha sohalariga taal-luqli nodir asarlar, qimmatbaho fikr mulohazalar hozirgi kunda ham jahon xalqlari ma'naviy dunyosini boyitib, ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qilib kelmoqdaki, biz bundan faxrlansak arziydi.

"Qadriyat" tushunchasi qadim zamonlardayoq paydo bo'lgan bo'lib, barcha tillarda mavjuddir. Qadriyat atamasi bizga arabcha "Qadr" so'zidan olingan bo'lib, borliq va jamiyatdagi biror bir narsa va hodisaning jamiyatda, kishilar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosa-batlarda tutgan muhim ahamiyatini ifoda etish uchun qo'llaniladi.

Hozirgi kunda dunyoda 200 dan ortiq davlat mavjud bo'lsa, ularning 160 ga yaqini demokratik taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bu davlatlarda demokratiya milliy va umumbashariy qadriyat sifatida qaror topganligi dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Aynan hozirgi davrga kelib, demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanligini dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilayotganligi demokratiyani milliy va umumbashariy qadriyat sifatida o'rganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir.

"Demokratiya" so'zi grekcha so'z bo'lib "xalq hokimiyati" degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, demokratiyaning asosiy belgisi alohida olingan u yoki bu mamlakatda xalqni oliy hokimiyatning manbai ekanligini amalda e'tirof etish-dir. Ayni paytda, turli xalqlar demokratiyaning

---

<sup>10</sup> Karimov I.A. Hushyorlikka da'vat. -T.: O'zbekiston, 1999. 30-31-betlar.

shakli va mazmu-nini turli davrlarda turlicha talqin etishgan. Demokratiyaning antik davrdagi talqini bilan hozirgi zamon talqini aynan bir xil emas.

G'arb olimlarining ta'kidlashicha, hozirgi vaqtga qadar demo-kratiya to'g'risidagi to'plangan ta'rif va tasniflar soni qariyb 550 tadan ortiqdir.<sup>11</sup>

R. Dal e'tirof qilganidek, "demokratiyaning tabiati ikki yarim ming yildan beri har tomonlama muhokama qilib kelinmoqda, bir qarashda ushbu muddat barchani qoniqtiradigan demokratiya g'oyalari yig'indisini ishlab chiqish uchun bemalol yetarlilik tuyuladi. Lekin bu amalga oshmadi. Yigirma besh asr davomida demokratiya g'oyalari ilgari surildi, himoya qilindi, tanqid qilindi, yo'q qilindi, keyin yana tiklandi, ammo ushbu hodisaning mohiyatini tashkil qiluvchi fundamental masalalar bo'yicha yagona to'xtamga kelina-ni yo'q".<sup>12</sup>

Demokratiya to'g'risidagi ta'riflarning barchasida demokratiya-ning atributlari turlicha talqin qilingan. Lekin masalaning eng muhim tomoni shundaki, shu paytga qadar, jahon ilmiy fikriga demokratiyani jamiyatda joriy qilishning barcha uchun umumiy bo'lgan qoidasini yaratdik, deb hech kim da'vo qilgani yo'q. Chunki demo-kratiyaning mohiyatini tashkil qiluvchi umumiy belgilari va mezon-lari bo'lgani holda, har bir jamiyat masalaga o'ziga xos imkoniyatlar va ularning xususiyatlaridan kelib chiqibgina yondosha oladi. Demo-kratlashuv jarayonining nihoyatda murakkabligi, uni amalga oshirish ko'lamining kengligini nazarga oladigan bo'lsak, bugungi kunda demokratiyani faqatgina siyosiy hokimiyatni amalga oshirish usuli sifatida qabul qilsak va shu eskirgan yondashuvdan kelib chiqib jamiyatda demokratiyani joriy qilishni tasavvur qilsak, albatta katta xatoga yo'l qo'yamiz. Chunki, bunda demokratiyaga o'ta bir tomonlama yondashgan bo'lamiz. Insoniyat to'plagan tajribalardan ma'lumki, bunday usulda hali biror bir jamiyat demokratiyaga to'liq o'tolmagan.

Demokratiya va demokratlashuv muammosi bilan shug'ullangan mutaxassislardan biri Dj. Dyui demokratiyaga bunday tor yondashuv-ni qattiq tanqid qilgan. Uning fikricha, "...demokratiya avvalambor siyosiy boshqaruvning

---

<sup>11</sup> Даймонд Л. Прошла ли "Третья волна демократизации?" // Полис. 1999. г 11. 11 б.

<sup>12</sup> Даль Р. О Демократии. –М.: Аспект пресс, 2000. 9 б.

usuli emas, balki yetakchi ravishda hayotni tash-kil qilish usuli, turmush tarzidir”.<sup>13</sup> Bugungi kunda demokratlashuv jarayoni bilan bog‘liq nazariyalar, ma’lumotlar ko‘pchiligi bois, demokratiyaga o‘tish vazifalarini hal qilish yo‘llarining xilma-xilligi oshib bormoqda va shuning uchun ham uning konseptual masalalari murakkabligiga qolmoqda.

A. Pshevorskiy ta’kidlaganidek, “demokratiyaga olib boruvchi yo‘llar turli-tumandir. Oxirgi natijada esa aynan qaysi yo‘lning tanlab olinishiga bog‘liq bo‘ladi”.<sup>14</sup>

Bir narsani alohida qayd qilish kerakki demokratik g‘oyalar turli xil milliy madaniy sharoitlarda yashay olish xususiyatiga ega. Bu degani, bir tomondan, demokratiya milliy xususiyatlarga ega bo‘l-sa, ikkinchidan, u turli millatlar, xalqlar hayotidan, davlatchilik, an‘analarda namoyon bo‘la oladi. O‘zining milliy-ma’naviy qadriyat-lariga tayanmagan, uni hisobga olib, ayni paytda umuminsoniy qad-riyatlar, prinsiplar bilan uyg‘un bo‘lmagan demokratiyani haqiqiy demokratiya deb bo‘lmaydi. BU borada hozirgacha bahslar davom etib kelmoqda.

Bugungi kunda demokratiyaning “Sharqona demokratiya” va “G‘arbona demokratiya” deb atalgan shakllari haqida ham turli ziddiyatli mulohazalar mavjud.

“Avvalo, - deydi professor I. Ergashev – “Sharqona demokratiya” va “g‘arbona demokratiya” atamasining alohida–alohida ishlatilishi demokratiyaning umuminsoniy ma’no-mazmuniga, umume’tirof etilgan qadriyat sifatida uning umumiy mohiyatiga soya tashlamaydi. Boshqacha aytganda, “demokratiya” (Sharqda ham, G‘arbda ham) – umum-e’tirof etilgan tushuncha. Unda muammo nimada? Muammo bizning nazarimizcha, “sharqona” yoki “G‘arbona” demokratiya o‘rtasidagi farq-ni anglash zamirida yotibdi, ya’ni muammo demokratiyaning umumiy, yagona mohiyatiga emas, uning o‘ziga xos milliy-ma’naviy xususiyat-larini farqlash, e’tirof etish bilan bog‘liq”.<sup>15</sup> Demokratiyaning

---

<sup>13</sup> Стур Дж. Открывая демократию заново (1). // Полим. 2003. № 5. 17-б.

<sup>14</sup> Пшеворский А. Демократия и рынок. –М.: РоссПЭН, 2000, 91-б.

<sup>15</sup> Ergashev I. Siyosat falsafasi. T.: Akademiya, 2004. 118-b.

bu atamalarini bir biriga qarama-qarshi qo'yish yoki bir-biridan ustun qo'yish mumkin emas.

Jamiyat hayotida demokratik qadriyatlarning chuqur joy olib borishi xalqning siyosiy-madaniy ongi, ularning siyosiy demokratiya va bozor munosabatlarining asosiy talablari, tamoyillarini qabul qilish hamda tatbiq etishga tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Boshqacha aytganda har bir xalqning milliy ongida shu xalqqa xos va mos bo'lgan, tarixan shakllangan asosiy jihatlar borki, u shu xalq-ning ruhiyatini, mentalitetini, xarakterini ifodalaydi va ular mamlakatning siyosiy tizimida o'zlarining izlarini qoldirmasligi mumkin emas.

Albatta, dunyo taraqqiyotida demokratiya umuminsoniy qadriyat sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singgan, e'tirof etilgan va shunga mos e'tibor berilayotgan, amal qilib kelinayotgan boshqarish uslubidir. BU umumiy qonuniyat. Ayni paytda, ana shu umumiy qonuniyatning ikkinchi muhim bir jihatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir xalqning hayot tarzi, mentaliteti, demokratiyani his etish, anglash, tushunish va unga amal qilish xususiyatining mavjudligi bilan bog'liq. Hamma xalqlar uchun yagona idora etish uslubi ham, yagona jamiyat andozasi ham yo'q. Birini ikkinchisidan afzal ko'rish ham mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan demokratiyaning hamma uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan jihatlarini tan olib, uning har bir xalqning milliy-ma'naviy ruhiyati asosida qaror topishi va umuminsoniy hodisaga aylanishini e'tirof etmaslik jamiyat rivojiga, demokratik taraqqiyot mantig'iga to'g'ri kelmasligini anglamaslik mumkin emas. Demokratiya qanchalik umuminsoniy ma'no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini, unga ruhiy kuch-quvvat beradigan, uni boyitib turadigan, rang-barangligini ta'minlaydigan "Milliylik" va "milliy ruhiyat", milliy ma'naviy qadriyatlardir.

Professor Ibodullo Ergashev G'arb va Sharq demokratiyasi orasidagi munosabatni quyidagicha ifodalaydi.<sup>16</sup> Demokratiyaning G'arbona ko'rinishi kimgadir afzal tuyulayotgan bo'lsa, bu g'arbona demokratiyani bir tomonlama ko'rish, unga ortiqcha baho berib, uning milliy-ma'naviy xususiyatlarini e'tirof

---

<sup>16</sup> Ergashev I. Siyosat falsafasi. –T.: Akademiya, 2004. 122-b.

etmaslikni anglatadi. Yoki Sharqona demokratiyaning zamondan orqada qolgan ayrim jihat-larini, mentalitetimizdan chuqur joy olgan ayrim nosogʻlom stereotiplarni oʻzgartirishga ehtiyoj mavjudligini koʻrsatadi. Sharqona demokratiya ham umumeʻtirof etilgan demokratik prinsiplarga asoslanadi. Ayni paytda, oʻzining mintaqaviy, umumiy milliy-maʼnaviy xususiyatlarini hisobga olishni anglatadi. U ham oʻz ichida rang-barang va nisbiy hodisa. Bu Sharq xalqlarining tarixan qaror topgan qadriyatlaridagi oʻziga xos milliy xususiyatlardir. Ular xalqlarning tafakkur tarzida, urf-odat va anʼanalarida siyosiy hayot, inson, jamiyat va davlatga qarashda amal qiladigan oʻziga xos siyosiy-madaniy xulq-atvor koʻrinishlarida namoyon boʻladi.

Bu xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa boʻlib yashash ruxiya-tining ustuvorligi, oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining odamlar qalbidan chuqur oʻrin olib, ota-onaga, mahalla-kuyga, jamoaga yuksak eʼtibor va hurmat bilan qaralishi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, ayol zotiga alohida ehtirom koʻrsatilishi, sabr-bardoshlilik va mehnatsevarlik, mehr-oqibatli boʻlish bilan bogʻliq prinsiplar avlod-dan-avlodga oʻtib kelayotgan qadriyatlardir. Bunday qadriyatlar tabiiy ravishda demokratiyaning umuminsoniy tamoyil-lari bilan chambarchas bogʻliq. Umuman, Sharqona demokratiya “axloq”, “maʼrifat” munosabatlari va anʼanalariga koʻproq bogʻlanganligi bilan ham farq qiladi. Bu hech qachon demokratiyaning umumbashariy tamoyillariga soya solmasligi lozim.

Gʻarb demokratiyasida ham xuddi shunday xususiyatlarni kelti-rib, uni Gʻarbdagi hayot tarzi va koʻnikmalariga nisbatan qiyosiy talqin etish mumkin, ayni paytda u koʻproq “anʼanalar”ga emas, uni hisobga olgan holda qonunga, shaxs erkinligiga, Sharq nuqtai nazaridan yondashganda qonun asosidagi “individualizm”ga asoslanib, fuqaro siyosiy madaniyatiga chuqur singganligini koʻramiz. Bundan Gʻarb demokratiyasi jamoani, milliy-maʼnaviy xususiyatlarni mutla-qo tan olmaydi, u jamoatchilikdan ham, insoniy mehr-oqibat munosabatlaridan ham begona degan xulosa kelib chiqmaydi.

Umuman, demokratiyaning Sharqona va Gʻarbona koʻrinishlari ham milliy-maʼnaviy xususiyatlarni eʼtirof etadigan, unga tayana-digan umuminsoniy mohiyat

kasb etadi. Demokratiyaning qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar milliy-ma'naviy xususiyatlardan ozuqa oladi, unga tayansagina umuminsoniy qadriyatga aylanib bora-di. Bu xalqlar hayotida muhim o'rin tutadi va demokratik jamiyat qurishni kafolatlaydi.

Ko'rinib turibdiki, demokratiya juda murakkab tushuncha. Demokratiyaning tabiati murakkab bo'lishi bilan milliy va umuminsoniy xususiyatlarga ega ekan, uning mezonlari, jamiyatda qaror toptirish jarayonlari to'g'risida nima deyish mumkin?

Bugungi kunga kelib Yevropa mamlakatlarida bir qator demo-kratik qadriyatlar shakllandi. YA'ni ularda bu qadriyatlarni shakllantirish orqali demokratiya shaxs, davlat, fuqaro va jamiyat o'rta-sidagi munosabatlar muvozanatini ta'minlamoqda va u quyidagi mezonlarda o'z ifodasini topmoqda. Jahon siyosatshunoslari demo-kratiyaning quyidagi mezonlarini e'tirof etmoqdalar:

1. Xalqlarning davlat va jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan qonunlarning qabul qilinishidan xabardorligi;
2. Xalqning qonunlarning qabul qilinishida bevosita yoki bilvosita ishtirok qilishining ta'minlanganligi;
3. Xalqning qabul qilingan qonunlarning ijrosi ustidan nazoratining ta'minlanganligi;
4. Oddiy fuqaroning davlat, jamiyat hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni bema'lol olish uchun imkoniyatning yaratilganligi va h. k.

Xo'sh, O'zbekiston demokratiyani shakllantirishning qanday yo'lidan bormoqda.

Birinchidan, demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo hamjamiyati e'tirof etgan yo'riqlari mavjud.

Bular:

- fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin ifodalashi;
- ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi;
- qonun ustuvorligi;

- barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqliligi;

- saylash va saylanish huquqi va boshqalar.

Bu yo'l-yo'riqlar barcha mamlakatlar konstitusiyalarida qat'iy belgilab qo'yilgan. Biroq, ma'lum bir mamlakatda demokratiyani joriy etishda faqat shuning o'zi kifoya qiladimi? Faqat shuning o'zi aholi barcha ehtiyojlarini, ma'naviy-ruhiy olamini qamrab ola oladimi? Yo'q! Chunki, har bir xalqning o'z turmush tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabati va boshqa jihatlaridan kelib chiqib, demokratiyaga yondashish usuli bor. Shu ma'noda Prezident Islom Karimov: "Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi.

YA'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat nohush hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham "ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli" deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi", deganida demokratiyani joriy etishning yurtimiz-da o'zbekona tamoyillari shakllanayotganligini ko'rsatadi. Ikkinchi-dan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bir qator demokratik taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlar - jumladan, Turkiya, Germaniya, Angliya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarning demokratik taraqqiyot yo'llari bilan tanishdi. Bu mamlakatlarda demokratiyaning ibratli va o'rganishga arziqli tajribalari mavjud. Ammo demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan har bir davlat o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lini tanlab olishi kerak degan xulosaga keladi. YA'ni har bir millat o'z milliy ruhiyatidan kelib chiqib bu masalaga yondashishi darkor. Ayniqsa, o'zbeklar singari juda qadimiy millat va juda boy an'analarga ega bo'lgan xalq ehtiyojlarini hisobga olish darkor. Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko'r-ko'rona ko'chirish aslo yaramaydi. Bunday yo'lni tanlash xatarli oqibatlarga olib keladi deb aytgan edi Prezidentimiz.

Uchinchidan, demokratiyani ko'r-ko'rona joriy etib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, G'arb demokratiyasini Sharq mamlakatlari-ga ko'r-ko'rona

ko'chirish mumkin emas. Uni ko'chirish yoki unga taqlid etish kutilmagan fojialarga olib kelishi mumkin. Qolaver-sa, har bir xalqning fikrlash darajasi voqea va hodisalarga muno-sabati, uni baholash tarzi, o'zining tarixiy kelib chiqishi, qadimiy an'analar asosida shakllangan turmush tarzi va tabiati bilan belgilanadi. G'arb demokratiyasida ochiqdan-ochiq munosabat, Sharq demokratiyasida esa aksincha - andishalilik, G'arbda ota-onasini sen-sirash, Sharqda esa o'zidan kattalarga, rahbarga hurmat bilan qarash, vazminlik bilan ish tutish an'analari mavjud. Shuni alohida ta'-kidlash lozimki, hayot tarzi, an'analar, hamma vaqt har bir mamlakat xalqlarining xulq atvorini shakllantiradi.

Ayrimlar O'zbekistonni AQSH va boshqa rivojlangan mamlakat-lardagi ahvol bilan solishtiradilar. Bu solishtirish mutlaqo no-to'g'ri. Birinchidan, mazkur mamlakatlarda demokratiya to'liq shakl-langan deb hech kim ayta olmaydi. Qolaversa, bu mamlakatlarda inson huquqlari davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar borasida to'p-langan tajribalar, amalga oshirilgan ishlar 200 yildan ortiq vaqt mahsuli ekanligini esdan chiqarmaslik lozim.

AQSH da liberal-demokratik institutlar bilan bog'liq respub-lika qurilishi XVIII asr oxirlarida qaror topgan bo'lsa, Fransiyada uzil-kesil XIX asrning oxirlarida amalga oshirilganligini ko'rish mumkin. Italiya va Germaniyada esa demokratiya ikkinchi jahon uru-shidan keyin, G'arbiy Yevropaning uchta mamlakati: Gretsiya, Portuga-liya va Ispaniyada XX asrning 70-yillari o'rtalarida, Sharqiy Yevropada demokratlashuv jarayoni 80-yillarning oxiriga to'g'ri keladi.

Mustaqil O'zbekistonda tarixan qisqa vaqt ichida G'arb davlat-laridagidek keng miqyosli tadbirlarni amalga oshirishni talab etish aqlga sig'maydi. Odamlar dunyoqarashi fikrlash tarzi va onglilik darajasini bir kun yo bir yilda o'zgartirish mumkin emas. Bu uzoq davom etadigan jarayondir. Demak, demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Demokratiyaga tinimsiz aqliy va jismoniy mehnat qilib, ter to'kib, hayotning achchiq-chuchugini obdon totib, qiyin, aytish mumkinki, hatto fojiali tajribalarni ham boshdan o'tkazib, og'ir sinov va kurashlarga mardona bardosh beribgina erishish mumkin.

Shu jihatdan olganda mamlakatimiz rahbari tomonidan ma'mu-riy buyruqbozlik tizimi yemirilgandan keyin paydo bo'lgan qiyin-chiliklarni yengish va mamlakatimizning bevosita demokratik taraqqiyot tomon yo'l tutishi uchun zarur bo'lgan nazariy asoslarning belgilanishi jamiyatimizda o'tish jarayonlarining boshlanishi uchun yetakchi manba bo'lib xizmat qilganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Davlatimiz rahbarining g'oyalarida demokratiyaga o'tish jarayonida har qanday mamlakat oldida ko'ndalang bo'lib turuvchi demokratiyaga qaysi yo'l bilan boramiz va buning uchun qanday manbalarga tayana olishimiz mumkin degan ikki muhim masalaga oydinlik kiritildi.

Jumladan, I.A. Karimov xulosa qilganidek: "Demokratiya – faqat nazariy yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an'analari, mada-niyat, psixologiyasining xususiyatlari hamdir. Demokratiya g'oyalarini bayon qilish mumkin. Siyosatda demokratiyani yuqoridan "tushirish" mumkin. Lekin bu bilan demokratiya sizni bizning amaliy hayotimizga singmaydi. Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatida joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir".<sup>17</sup>

Davlatimiz rahbarining ushbu talqinidan kelib chiquvchi aso-siy konseptual xulosa shundan iboratki, jamiyatimizning demokratiyaga o'tishi tabiiy ravishda bir necha bosqichdan iborat bo'ladi va har birining o'ziga xos vazifalarini, muammolarini hal qilib borish orqaligina demokratiya tomon ildamlab bora olishimiz mumkin.

Shu bois ham, Prezident tomonidan ta'kidlanganidek, bu "...uzoq va uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini aniq bilib olishimiz kerak... Biz izchil,

---

<sup>17</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. 185-b.

qadam – baqadam yangi marralarni egallaymiz, yangi vazifalarni belgilab olib, ularni hal etishga bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz kerak”.<sup>18</sup>

Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash lozimki, demokratiyala-shayotgan jamiyatning konseptual o‘lchamlarini aniqlab olishda, al-batta, yemirilgan totalitar tuzumning xususiyatlari va undan qolgan asoratlar qanchalik chuqurligi masalasini e’tiborga olish alohida o‘rin tutadi. Zeroki, eski tartibot oqibatlarini tartibot tugatil-gandan keyin ham bir qancha muddat saqlanib qoladi va faqat demo-kratiyalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi bilan bartaraf qilib boriladi. Shu bois bevosita demokratiyaga o‘tish vazifalari tarkibi-dan eski totalitar yoki avtoritar tartibot oqibatlarini tugatish masalalari ham albatta o‘rin olishi zarur bo‘ladi.

Shuningdek, jamiyat demokratiyalashuvining konseptual asoslarini hal qilishda demokratiya va demokratiyalashuv borasidagi eng zamonaviy tendensiyalardan kelib chiquvchi omillarning e’tibordan chetda qolmasligi masalasi ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu o‘rinda A. Pshevorskiyning “Demokratiya bu – noaniqliklar saltanatidir”,<sup>19</sup> degan fikrining zaminida katta mazmun yashirin-ganligini alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Olim e’tirof qilgan noaniqliklar hajmini imkon darajada qisqartirib borishga inti-lish natijasidagina ko‘zlagan maqsad yo‘lida ijobiy natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkin: demokratiya dunyo taraqqiyotida umuminsoniy qadriyat sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singgan, e’tirof etilgan va shunga mos e’tibor berilayotgan amal qilib kelinayotgan boshqaruv uslubidir. Ayni paytda, ana shu umumiy qonuniyatning ikkinchi muhim jihatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir xalqning hayot tarzi, mentaliteti, demokratiyani his etish, anglash va unga amal qilish xususiyatining mavjudligi bilan bog‘liq. Hamma mamlakatlarbop yagona demokratik davlat barpo etish andozasi yo‘q. Birini ikkinchisidan ustun qo‘yish mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan

---

<sup>18</sup> Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. –T.: O‘zbekiston, 1996. 21-22-betlar.

<sup>19</sup> Пшеворский А. Демократия и рынок. –М.: РоссПЭН, 2000. 138-б.

demokratiyaning hamma uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan jihatlarini tan olib, uning har bir xalq milliy-ma'naviy ruhiyati asosida qaror topishi va umuminsoniy hodisaga aylanishini e'tirof etish lozim. YA'ni demokratiya milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa, unga tayanmasa o'z mohiyatiga zid bo'lib qoladi.

## **XULOSA**

Jamiyatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish va takomillashtirishda hali ko'p ishlarni amalga oshirishimiz lozim bo'ladi. Bu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham talaygina. Ularning ba'zilariga to'xtalamiz:

Respublika va viloyatlar darajasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, ba'zi joylarda, jumladan, tuman, jamoa xo'jaliklarida jiddiy e'tibor berish lozim bo'lgan ishlar mavjud. Ko'pgina tuman rahbarlari hanuzgacha madaniyat sohasiga yetarlicha e'tibor berishmayapti;

O'zbekiston hududlarining mushtarakligini ta'minlashda madaniyat va san'atning o'rni katta. Bu borada «Viloyatlar kuni», ya'ni viloyatlarda bir-birining kunlarini o'tkazish yaxshi samara beradi. Bunday tadbirlarni tumanlararo ham o'tkazish mumkin;

Hozirgi davrda yoshlar ma'naviyatiga alohida e'tibor berish lozim. Yoshlar ongida va ma'naviy hayotida bo'shliqning paydo bo'lishiga mahalliy madaniyat muassasalarining talab darajasida ishlamayotganligi sabab bo'lmoqda. Madaniyat va aholi dam olish markazlari, kutubxonalar, istirohat bog'lari mahalliy aholi va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga va ularni g'oyaviy, ma'naviy kamol topishiga samarali xizmat qilishi kerak.

Madaniyat tizimining moddiy negizini yaxshilash muammolarning biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hali qator muammolar ham mavjud:

a) madaniyat sohasida tuzilgan yangi (davlat, jamoa va nodavlat) tashkilotlariga hukumatimiz katta mablag'lar ajratgan. Ularga moddiy va ma'naviy yordam berib turilibdi. Ularga mablag'ini ko'paytirish maqsadida tijorat ishlarini olib borishga ruxsat berilgan. Ularning ko'pi besh yilgacha soliqdan ozod etilgan. Biroq ular ishni yo'lga qo'yish uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalanish o'rniga bu tashkilotlarning rahbarlari o'zlari uchun qulayliklar yaratish bilan ovora. Shuningdek, madaniyat tizimi o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash ishlarini ham yaxshi yo'lga qo'yishi zarur;

b) madaniyat va san'at industriasini yo'lga qo'ymasdan bu sohani taraqqiy ettirib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kino industriasini (ssenariy yaratish, kino olish, uni targ'ib qilish, ijara ishlarini amalga oshirish),

musiqasi industriasini (musiqiy asarlarni yaratish, ijro qilish, ovoz yozib olish va uni tarqatish),

tasviriy san'at industriasini (tasviriy durdonalar yaratish, uni targ'ib qilish, ko'rgazma savdolar, auksionlar uyushtirish) kabilarni yo'lga qo'yish zarur bo'lmoqda.

v) madaniyat tizimi faoliyatini yaxshilash uchun unga, albatta, faol qiziquvchi, tashabbuskor va izlanuvchi-ijodkorlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina joylarda madaniyat sohasida hamma ishlayverishi mumkin, degan tushuncha mavjud. Bunday tushuncha bilan madaniyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Madaniyat jonkuyar, tashabbuskor tashkilotchilar bilan tirik. Ularsiz madaniyat tizimi ishlay olmaydi va inqirozga uchraydi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” T.; 2008
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 322-sonli Qarori
3. Ahmedov F. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. –T., 2007.
4. Genkin D. M. Massoviye prazdniki.–M., 1975.
5. Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. –T.: G‘.G‘ulom, 2002.
6. Jabbarov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1994.
7. Istiqlol va milliy teatr. Farmonlar, qarorlar, nutqlar to‘plami. -T., 2002.
8. Karabayev U.X. Etnokultura. – T., 2005.
9. Shodiyev B. Maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolari. //Doktor. diss... –T., 2007.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. /M.Ma’rifov tahriri ostida. –T., 1981.
11. O‘zbekiston san’ati (1991-2001 yillar). O‘zbekiston badiiy akademiyasi san’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti. –T.: Sharq, 2001.
12. Qodirov M.X. O‘zbek teatri an’analari. –T., 1976.
13. Qodirov M.H. O‘zbek xalq tomosha san’ati. –T.; O‘qituvchi, 1981.

14. Qoraboyev U.H. Badiiy-ommaviy tadbirlar. -T.: O‘qituvchi, 1986.

15. Qoraboyev U.H. O‘zbek xalqi bayramlari. – T., 2002.

***Internet saytlari***

1. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).

2. [www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru).

3. [www.history.ru](http://www.history.ru).

4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - Hukumat sayti.

1. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) - Prezident sayti.

2. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz) - Vazirlik sayti.